Cricket is played by men and boys, women and girls. There are two teams of eleven each. One team must bat, and the other team must field. When the first team finishes batting, the second team must begin. The batsman must all the time guard his "wicket", three pieces of wood that are pushed into the ground. The game is very slow. Organized amateur cricket is played between club teams, mainly on Saturday afternoons from May to the end of September. Nearly every village except in the far North has its cricket club. A first-class match between English counties lasts for up to three days, with six hours' play on each day. When England plays with one of the cricketing countries such as Australia or New Zealand it is called a test match and it lasts for five days.

105. According to the text, which of the following is true?

- A) From May to the end of September non-professional cricket is played.
- B) Cricket as well as all other English games has been adopted all over the world.
- C) The British people neither play nor watch competitive sports.
- D) Cricket is a swift kind of game which is played by two teams of 11 each.

106. According to the text, which of the following is false?

- A) Wicket is the set of three sticks that must be hit with the ball.
- B) Almost all villages, even the far North ones hold their cricket clubs.
- C) A first-class match between English regions continues for three days.
- D) People of either gender may be engaged in cricket games.

107. What is the best title for the passage?

- A) Leisure for the world nations
- B) The game of English origin
- C) Professional cricket games
- D) Adoption of British Empire

108. The word "enthusiasm" in the passage can be replaced with...

- A) tolerance
- B) offence
- C) passion
- D) humour

ONA TILI VA ADABIYOTI

1. Yurtimizda yashayotgan har qaysi inson o'zini eng avvalo O'zbekiston fuqarosi deb shundan keyingina muayyan bir hudud vakili aytaylik xorazmlik toshkentlik samarqandlik yoki Farg'ona vodiysi farzandi deb his qilishi lozim. Ushbu gapda nechta vergul tushirib qoldirilgan?

A) 4 ta B) 7 ta C) 5 ta D) 6 ta

2. Ostida dulduli, belda zulfiqor,
Jilovda Bobo Qambar jilovdor,
G'amingda otlandi Shohimardon pirlar...
"Alpomish" dostonida ushbu so'zlar kim tomonidan kimga aytilgan?

A) Rasul Payg'ambar tomonidan Qorajonga
B) Rasul Payg'ambar tomonidan Alpomishga
C) Rajabxo'ja eshon tomonidan Alpomishga
D) Rasul Payg'ambar tomonidan Boybo'riga

3. O'z Vatanini sevmolik har bir shaxsning muqaddas burchidir, ammo haqiqiy vatanparvar uni sevish bilan kifoyalanib qolmaydi, balki Vatan ravnaqi hamda obro'yi uchun tinmay kurashadi.
Berilgan gapdagi yopiq bo'g'inlardan nechitasi portlovchi sonor undosh bilan tugagan?

A) 8 tasi B) 7 tasi C) 9 tasi D) 6 tasi

4. Ertasiga ertalab ona yana yo'lga tushdi. Ular bu yerdan xiyla uzoqlashib ketgan edi. Izlab, aylanma yo'llardan ehtiyotkorona o'tib uzoq yurdi.
Ushbu gapda nechta so'z birikmasi sifatlovchi aniqlovchili birikma sanaladi?

A) 2 ta B) bunday birikma ishtirok etmagan C) 1 ta D) 3 ta

5. Qaysi javobdagi nom tog'ri yozilgan?

A) Ko'kdumaloq kompresor stansiyasi
B) "Oltin Yulduz" medali
C) "Don Mahsulotlari" davlat-aksionerlik korporatsiyasi
D) "Xususiy tadbirkorlik va Kichik biznesni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi"

6. Shu yurt tinch – yo'q dilda sanchiqlaringiz,
Qiqirlab yurishar qalliqlaringiz.

Yor-yorlar yarashar, to'ylar yarashar,
Yarashar to'qlikka sho'xliklaringiz.

Ushbu she'riy parchada ishtirok etgan yasama so'zlar haqidagi fikrlardan nechitasi to'g'ri?

1) fe'ldan ot yasalgan; 2) fe'ldan sifat yasalgan; 3) taqlid so'zdan fe'l yasalgan; 4) otdan sifat yasalgan; 5) sifatdan ot yasalgan

A) to'rttasi B) beshtasi C) uchitasi D) ikkitasi

7. Quyidagi qaysi g'azal matla'sida maydotalab bo'lolmaydigan, turli bo'htonlar bilan el orasini buzadigan kimsalar pardoz qiluvchi satang ayollarga o'xshatiladi?

A) "Tor ko'ngillik beklar" (Turdi)
B) "Hajvi ahli rasta" she'ri (Zavqiy)
C) "Turdiman" radifli g'azli (Turdi)
D) "Tanobchilar" satirasi (Muqimiy)

8. Qaysi gaplarda teng bog'lovchining mazmuniy munosabatni ro'yobga chiqarishiga ko'ra ikki turi qatnashgan?

1. Menda na bol tayyorlamoq mashaqqati va na uya solmoq kulfati bor. 2. Ipak kiyim-kechaklar dazmollanmagani ma'qul, agar zarur bo'lsa, teskari tomonidan yoki ustiga zig'ir tolasidan to'qilgan mato qo'yib, qattiq qizimagan dazmol bilan dazmollanadi. 3. Nobel neft va portlovchi moddalar ishlab chiqarishdan o'ttirgan boyligini nafaqat fizik hamda ximiklarga, balki vrachlar, adabiyotshunoslar va tinchlikparvatlarga ham berilishini vasiyat qilib ketdi. 4. O'g'il-qizlarimiz biz yetolmagan orzularga erishishi, shuningdek, biz chiqolmagan cho'qqilarni zabt etishi muqarrar, chunki ularning jo'shqin qalbida jahoniy aql va tafakkur mash'ali yolqinlanib turibdi. 5. Agar vaqti kelsa, tog'lar ham yemiriladi, lekin yoshlikda inson qalbiga ekilgan ezgulik urug'lari toabad zavol topmaydi, chunki ular inson umrining unutilmas davrida erishgan bebaho ne'matlardir.

A) 2, 3, 4 B) 1, 3 C) 1, 3, 5 D) 3, 5

9. Qaysi muallif o'z asarida o'zi haqida "... bu kitobni tuzgan, toat yo'lida tizgan, ma'siyat yobonini kezgan, oz ozuqliq, ko'p yoziqlu..." deb qayd etgan?

A) Ahmad Yugnakiy B) Nosiruddin Rabg'uziy
C) Yusuf Xos Hojib D) Mahmud Koshg'ariy

10. Hamisha, so'nggi, ochiqdan ochiq, birma-bir, g'olibona, naridan beri, oldinma-ketin, har gal Berilgan so'zlardan nechitasi yasama ravish sanaladi?

A) 5ta B) 6ta C) 7ta D) 3ta

11. Ey shah, karam aylar chog'i teng tut yamon-u yaxshini
Kim, mehr nuri teng tushar vayron-u obod ustuna.
Ogahiy qalamiga mansub ushbu misralarda qanday badiiy san'at yaratilgan?

A) tarse' B) mubolag'a C) tazod D) iyhom

12. Berilgan so'zlardan qaysilari omonim so'zlar sanaladi?

1) ado; 2) tol; 3) havo; 4) ayb; 5) asr; 6) bemor; 7) bog'li

A) 1, 3, 4, 5 B) 1, 2, 3, 5, 7 C) 2, 5, 6 D) 2, 3, 4, 5, 6, 7

13. Telefonda muloqot qilayotganingizda xodimlardan biri kelib muhim ish borligini aytib qolsa, hamsuhbatingizni ranjitmasdan unga ma'lum vaqtdan keyin o'zingiz qo'ng'iroq qilishingizni ayting va telefonni ohista qo'ying.
Ushbu gapda ishtirok etgan yasama so'zlar sonini toping.

A) 2 ta B) 3 ta C) 5 ta D) 4 ta

14. Temur tig'i yetmagan joyni qalam bilan oldi Alisher.
She'riy parchada ajratilgan so'zdagi ma'no ko'chish usulini aniqlang.

A) vazifadoshlik B) metafora C) metonimiya D) sinekdoxa

15. O'zligini anglashga bel bog'lagan har bir xalq va millat buyuk ajdodlari xizmatlarini e'zozlashni o'rninga qo'yadi, boshqalarga ham buni e'tirof ettiradi.

Ushbu gapda qo'llangan aniqlovchi(lar) necha o'rinda boshqaruv usuli bilan boshqa bo'lakka birikkan so'zga nisbatan tobe bo'lak vazifasini bajargan?

A) 4 o'rinda B) 2 o'rinda C) 3 o'rinda D) 1 o'rinda

16. Siz Hindistonda neniki ko'rgan bo'lsangiz, ularni jam etgan holda bir kitob yozmog'ingiz darkor.
Ushbu ergashgan qo'shma gap haqidagi fikrlarning nechitasi noto'g'ri?

1) bosh va ergash gap nisbiy so'z orqali bog'langan;
2) to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap; 3) bosh gap qismi egasi yashiringan gap; 4) ergashgan qo'shma gap qismlarini bog'lovchi nisbiy so'zlar hokim qismga bitishuv va boshqaruv usulida bog'langan

A) to'rttasi B) ikkitasi C) bittasi D) uchitasi

17. Muniso, to'kmay yigirma yetti yosh (1),
Vah, yigirma yetti uzra yetti yosh (2),
Yosh kibi mashg'ulliq qilmoq nedur,
Har qachonkim suhbatimg'a yetti yosh (3).
Ushbu she'rdagi raqamlangan so'zlardan qaysi(lar)i sifat turkumiga mansub?
A) 1, 3 B) 1, 2, 3 C) 1, 2 D) faqat 3
18. Sizlardan oldin shaharga kelgan xorijlik mehmon
Ushbu so'z birikmasi zanjiri ichida nechta so'z birikmasini hosil qilish mumkin?
A) 3 ta B) 5 ta C) 4 ta D) 2 ta
19. Ko'zlarim hali harf tanimas edi,
Qalam ushloymasdi hali qo'llarim.
Kapalak izidan quvib tinmasdim,
Yulduzlarni sanar edim tunlari. (M.Boboyev)
She'riy parchada necha o'rinda qarashlilik ma'nosini bildirgan egalik qo'shimchalari qo'llangan?
A) 3 B) 5 C) 2 D) 4
20. Mulki borliq ichra bir mahal,
Ko'rsizgina olam yaralgan.
Bermoq uchun dunyoga sayqal,
Olam aro odam yaralgan. (E.Vohidov)
Ushbu she'riy parchada mustaqil so'z turkumlarining necha turiga oid so'zlar qatnashgan?
A) 5 B) 6 C) 3 D) 4
21. Ushbu gapdagi ismlar guruhiga mansub yasama so'zlar tarkibida munosabat shakllari necha o'rinda qatnashgan?
Hunar ado bo'lmas boylikdir. Ilm kelinchakka o'rshaydi: u pinhoniylikni yoqtiradi. Erinchak, dangasa insonlar hayotda hech qachon muvaffaqiyat qozona olmaydi. Shu o'g'itlarga amal qilishga odatlaning.
A) 3 o'rinda B) 4 o'rinda C) 2 o'rinda D) 5 o'rinda
22. **Olisroqda gulxan yoqildi.**
Ushbu gapning kesimi aniq nisbatdagi fe'lga aylantirilganda sodir bo'ladigan grammatik o'zgarish(lar) to'liq ko'rsatilgan javobni aniqlang.
1) fe'lga ifodalangan zamon ma'nosi o'zgaradi; 2) o'timsiz fe'l o'timli fe'lga aylanadi; 3) ushbu gapning egasi to'ldiruvchiga aylanadi; 4) ushbu gap egasi yashiringan gapga aylanadi.
A) 2, 3, 4 B) 1, 2, 3, 4 C) 1, 2 D) 2
23. Qaysi juftliklarda o'zaro shakldosh qo'shimchalar ishtirok etmagan?
1) qovurma (lag'mon) - qovurma (harakat inkori);
2) bog'lar (o'rin-joy oti) - bog'lar (harakat);
3) terim (tananing tashqi qoplamasi) - terim (faoliyat-jarayon oti);
4) ko'zlar (inson a'zosi) - ko'zlar (harakat);
5) qaynatma (sho'rva) - qaynatma (harakat inkori)
A) 2, 4 B) 1, 2, 3, 4 C) 2, 3, 4 D) 2, 3
24. Tani tuproqda-yu, dil bo'lsa uyg'oq,
Tirik murda dildan o'sha yaxshiroq. (S.Sheroziy)
Ushbu hikmat tarkibida qo'llangan she'riy san'at turlarini aniqlang
A) tazod, tarse B) tanosub, tazod C) tanosub, tajnis
D) husni ta'llil, tazod, tardi aks
25. Qaysi ijodkor o'zining xotiralarida Mirzakalon Ismoilij haqida "... yozganlarimni talabchan tog'amga ko'rsatishdan cho'chir edim..." deb eslaydi?
A) Tohir Malik B) Said Ahmad C) O'tkir Hoshimov
D) Ozod Sharafiddinov
26. Pahlavon Mahmudning "Kanz ul-haqoyiq" asari qaysi janrda yozilgan?
A) doston B) tarje'band C) masnaviy D) nasriy asar
27. Hatto namanganliklar olis yo'l bosib charchab kelgan, og'iz-burnidan olov sochadigan "otash arava"ni siylash uchun qirg bog' beda, yuz paqir suv olib chiqqanlari haqida hangomalar ham bor.
Ushbu gapdagi uyushiq bo'laklar qaysi gap bo'laklariga tobelangan?
A) sifatlovchi aniqlovchi, vositasiz to'ldiruvchi
B) vositali to'ldiruvchi, ega
C) vositali to'ldiruvchi, sifatlovchi aniqlovchi
D) vositasiz to'ldiruvchi, vositali to'ldiruvchi
28. Boburning qaysi misra bilan boshlanuvchi ruboysida fojia hazil bilan beriladi?
A) "Tole yo'qi jonimg'a balolig' bo'ldi"
B) "Beqaydmen-u xarobi siym ermasmen"
C) "Ko'ngli tilagan murodiga yetsa kishi"
D) "Hajringda bu tun ko'ngulda qayg'u erdi"
29. Qaysi she'rdagi lirik qahramon, ya'ni shoir uning talpingan manzili "murodga qasd qilib yugurish"ni talab qilishi, "beg'am, bemehnat tiriklik ne kerak" ligi haqida isyonkor misralar yaratadi?
A) Usmon Nosir, "Yo'lchi"
B) Cho'lpon, "Buzilgan o'lkaga"
C) Musa Jalil, "Kechir, yurtim"
D) Usmon Nosir, "Yurganmisiz birga oy bilan"
30. To'tini o'z ismini aytishga o'rgatishadi. Ismni ko'p takrorlashadi. Keyin bir kuni, ehtimol, bezosdanmi yoki o'z kayfiyatini bildirish uchunmi, u talab qilinayotgan so'zni aytib yuboradi va shu ondayoq mukofot oladi.
Berilgan parchada nechta fe'l tarkibida nisbat qo'shimchasi ishtirok etgan?
A) 7 B) 4 C) 6 D) 5
31. **Oshxonamizda tayyorlanayotgan turli-tuman shirin milliy taomlar, qulay sharoitlar va yuqori darajada ko'rsatilayotgan xizmatimiz sizga yoqishiga ishonchingiz yanada ortadi.**
Ushbu gapda ishtirok etgan ismlar guruhiga kiruvchi yasama so'zlar qaysi gap bo'lagi vazifasini bajargan?
A) sifatlovchi aniqlovchi, ega, o'rin holi
B) ega, to'ldiruvchi, kesim
C) sifatlovchi aniqlovchi, ravish holi, o'rin holi, vositali to'ldiruvchi, ega
D) sifatlovchi aniqlovchi, vositasiz to'ldiruvchi, ega
32. Qaysi javobda nomi keltirilgan asarda ismi yo'lda tug'ilgani sababli qo'yilgan qahramon uchraydi?
A) "Ufq" B) "Asrda tatigulik kun"
C) "Mehrobdan chayon" D) "Chinor"
33. Qiynalib yurayotgan bola og'ir xo'rsinib kuzatib turganlarga birma-bir qarab chiqdi.
Tarkibidagi undoshlari hosil bo'lish o'rniga ko'ra bir umumiy guruhga mansub bo'lgan bo'lak(lar) qaysi gap bo'lagi vazifasini bajargan?
A) 1 o'rinda hol, 1 o'rinda to'ldiruvchi
B) 1 o'rinda aniqlovchi, 1 o'rinda hol
C) 1 o'rinda hol
D) 1 o'rinda aniqlovchi, 2 o'rinda hol, 1 o'rinda to'ldiruvchi
34. Qaysi javobda Mirtemirning "Surat" asari janri to'g'ri ko'satilgan?
A) dramatik doston B) ballada C) lirik hikoya
D) lirik qissa

35. Xalqaro Bobur Jamg'armasi tashabbusi bilan 2006-yili Hirotda qaysi ijodkorning qabri aniqlashtirilib, u yerda o'zbek milliy uslubida ayvonli yangi maqbara bunyod etildi?
A) Jomiy B) Alisher Navoiy C) Lutfiy
D) Husayn Boyqaro

36. *Ro'paramda esa kamida qirg'ni qoralab qolgan, chakka sochlariga oq oralagan, ko'zlarida biror ma'no yo'q, lablari po'rsildoq kimsa o'tirardi.*
Ushbu gap turini aniqlang.

- A) uyushiq bo'lakli sodda gap
B) bog'lovchisiz qo'shma gap
C) qismlari uyushgan murakkab qo'shma gap
D) aralash murakkab qo'shma gap

TARIX

37. Jahon tarixida Germaniyaning Bolqon, Yaqin, O'rta va Uzoq Sharqqa suqulib kirishining kuchayish jarayoni (XIX asr oxirlari) qanday nom oldi?

- A) "Sharq masalasi" B) "Yo'g'on kaltaklar"
C) "Sharqqa hujum" D) "Nur sharqdan"

38. Davlatimiz mustaqilligi yillarida buyuk alloma Abu Mansur al-Moturidiy xotirasiga bag'ishlab yodgorlik majmuyi barpo etilgan shaharni aniqlang.

- A) Buxoro B) Quva C) Urganch D) Samarqand

39. Yaponiya Seulda saroy to'ntarishi o'tkazgan va Koreya yarimorolini harbiy kuch bilan o'ziga qo'shib olgan yillar to'g'ri berilgan javobni ko'rsating.

- A) 1895, 1909-yy. B) 1894, 1910-yy. C) 1894, 1908-yy.
D) 1895, 1905-yy.

40. 1917-yilda bo'lib o'tgan Butunrossiya musulmonlarining II qurultoyida qabul qilingan qarorlarga quyidagilardan qaysi biri taalluqli emas?

- A) Turkistonda davlat boshqaruvini mehnatkashlarning o'zlari hal etishi to'g'risidagi qaror
B) Kavkaz va Qrimda davlat boshqaruvini mehnatkashlarning o'zlari hal etishi to'g'risidagi qaror
C) Musulmonlarning kurashini tashkil etish uchun Butunrossiya harbiy sho'rosini ta'sis etish to'g'risidagi qaror
D) "Ezilgan va ekspluatatsiya qilinuvchi xalq huquqlari Deklaratsiyasi" ning huquqiy maqomini qayta tiklash to'g'risida qaror

41. Pokiston-Hindiston o'rtasidagi diplomatik aloqalar nechanchi yilda tiklandi?

- A) 1984-yil B) 1976-yil C) 1974-yil D) 1969-yil

42. 1949-yilda Parij shahrida o'tkazilgan tinchlik tarafdorlarining birinchi butunjahon kongressi qanday shior ostida o'tkazilgan?

- A) "Tinchlik, sotsial taraqqiyot va xalqlar ozodligi uchun"
B) "Tinchlikni kutib turmaydilar, tinchlikni kurash bilan qo'lga kiritadilar"
C) "Dunyo xalqlari urushga qarshi"
D) "Tinchlikni va insoniyat keljagini saqlab qolaylik"

43. Muhammad Rahimxon I ga bo'ysunishni istamagan turkmanlarning qaysi qabilasi Xurosonga ko'chib ketgan?

- A) Afshor qabilasi B) Burqut qabilasi C) Takya qabilasi
D) Yovmut qabilasi

44. Qaysi javobda quyidagi Sharqiy Yevropa davlatlari 1990-yildagi yalpi ichki mahsulotning aholi jon boshiga hisoblangan ko'rsatkichlari asosida to'g'ri ketma-ketlikda (miqdori ko'pidan oziga qarab) joylashtirilgan?
1) Bolgariya; 2) Vengriya; 3) Polsha
A) 2, 3, 1 B) 1, 3, 2 C) 2, 1, 3 D) 3, 1, 2

45. "Ost-Indiya" kompaniyasi Hindistonning Sind viloyatini bosib olgan vaqtda Qo'qon xonligida hukmronlik qilib turgan shaxsni aniqlang.

- A) Xudoyorxon B) Sulton Mahmudxon C) Sheralixon
D) Muhammad Alixon

46. 1952-yilda "Yevropa Mudofaa Hamkorligi" haqida shartnoma qaysi davlat poytaxtida imzolangan?

- A) Angliya B) AQSh C) Fransiya D) Germaniya

47. Fransiya oliy tabaqaviy-vakillik muassasasi — General shtatlarni dastlabki chaqirgan hukmdor (a) va so'nggi marta chaqirgan hukmdor (b)ni belgilang.

- 1) Karl VIII; 2) Lyudovik XI; 3) Filipp IV; 4) Filipp II;
5) Lyudovik XVI; 6) Lyudovik XIV
A) a-1, b-6 B) a-3, b-5 C) a-2, b-6 D) a-4, b-5

48. Qaysi javobda Germaniya kansleri Bismark o'z rejalarini amalga oshirish yo'lidagi asosiy g'ov deb bilgan davlat keltirilgan?

- A) Buyuk Britaniya B) Fransiya C) Italiya
D) Rossiya

49. I jahon urushidan keyin Iroqda tuzilgan siyosiy tashkilotlarni aniqlang.

- 1) "Iroq vasiyati"; 2) "Mustaqillik posbonlari"; 3) Iroq uyg'onish partiyasi; 4) Iroq milliy partiyasi; 5) "Mag'ribchilar bloki"; 6) "Dastur"; 7) "Saylangan musulmonlar federatsiyasi"
A) 1, 3, 4, 5 B) 1, 3, 5, 6 C) 3, 4, 5, 7 D) 1, 2, 3, 4

50. Buyuk Britaniya uchun Afg'onistonni vassal davlatga aylantirish yo'lidagi birinchi qadam bo'lgan shartnoma imzolangan vaqtda bo'lgan voqeani belgilang.

- A) A.Donish amir Nasrullo elchilari bilan Moskva, Peterburg va boshqa Rossiya shahrlari bo'ylab sayohat qildi.
B) A.Donish amir Muzaffar taklifi bilan "Manozir ul-kavokib" nomli astranomiya oid kitob yozdi.
C) Muhammad Yunus tomonidan "Xudoyqul anvar" asarini yozdi.
D) Muhammad Rahimxon madrasasi qurildi.

51. Quyidagi qaysi mamlakatda XX asrning 30-yillarida fashistlar faollashib "Jangovar xochlar" va shu kabi boshqa tashkilotlarni tuzishgan?

- A) Fransiya B) Ispaniya C) Italiya
D) Buyuk Britaniya

52. Buddaviylik dini paydo bo'lgan davrda jahon tarixida yuz bergan voqeani aniqlang.

- A) Qadimgi Afrosiyob shahriga asos solindi.
B) Saklarning harbiy qabila ittifoqi vujudga keldi.
C) Makedoniyalik Aleksandr sharqqa yurish boshladi.
D) Yunon-fors urushlari bo'lib o'tdi.

53. Qoraqalpoqlar Oydo'stbiy boshchiligida qo'zg'olon ko'targan vaqtda Qo'ng'iro't hokimi kim edi?

- A) Muhammad Rizoquli B) Muhammad Nazarbiy
C) G'oyib ibn Muhammad D) Muhammad Yaqub

54. O'zbekistondagi quyidagi oliy o'quv yurtlarini ular ochilgan vaqtiga qarab to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirilgan javobni toping.
1) Farg'ona politexnika instituti; 2) Toshkent avtomobil yo'llar instituti; 3) Andijon meditsina instituti; 4) Toshkent pediatriya instituti; 5) Toshkent fizkultura instituti;
a) 50-yillar; b) 60-yillar; c) 70-yillar
A) 1-c, 2-b, 3-a, 4-c, 5-a B) 1-b, 2-c, 3-a, 4-c, 5-a
C) 1-b, 2-c, 3-c, 4-a, 5-a D) 1-a, 2-c, 3-b, 4-a, 5-a
55. Mil.avv. 337-yildagi Korinfda yig'ilgan yunon shahar-davlatlari vakillari qaysi davlat hokimiyati ostida ittifoq tuzdilar?
A) Sparta B) Afina C) Makedoniya D) Xeroneya
56. Qaysi javobda mustaqillik yillarida 1130 yillik yubileyi nishonlangan alloma nomi keltirilgan?
A) Imom al-Buxoriy B) Mahmud az-Zamaxshariy
C) Imom al-Moturidiy D) Najmiddin Kubro
57. Ilk o'rta asrlarda Buxoro hukmdorlarining qarorgohi joylashgan yodgorlikni aniqlang.
A) Vardonze B) Ayritom C) Poykand D) Varaxsha
58. Qaysi javobda 1972-yilda tashkil etilgan V.R.Chkalov nomidagi Toshkent Aviatsiya ishlab chiqarish birlashmasiga birlashtirilgan zavodlar ko'rsatilgan?
1) Toshkent aviatsiya zavodi; 2) Toshkent motor zavodi;
3) Andijon mexanika zavodi; 4) Farg'ona mexanika zavodi;
5) Foton zavodi; 6) Toshkent kislorod zavodi; 7) Toshkent elektroapparat zavodi
A) 2, 3, 4, 7 B) 1, 3, 5, 6 C) 1, 3, 4, 6 D) 1, 2, 6, 7
59. Qadimda O'rta Osiyo hududlarini egallagan Eftallar davlati qulagach, Amudaryodan to Suriyaga qadar bo'lgan Ipak yo'li ustidan nazorat kimning qo'liga o'tdi?
A) Vizantiyaning B) Turk xoqonligining C) Xitoyning
D) Eronning
60. Eronda Sosoniylar hukmdori Xisrov I Anushervon hukmronlik qilgan yillar oralig'ida Yevropa tarixida sodir bo'lgan voqealar to'g'ri berilgan javobni toping.
1) Suasson jangi bo'ldi; 2) Franklar Burgundiyaning istilo qildi;
3) Pipin Pakana taxtga o'tirdi; 4) Franklar Provansni istilo qildi; 5) Xilperik hukmronligi boshlandi
A) 3, 4, 5 B) 2, 3, 5 C) 2, 4, 5 D) 1, 2, 4
61. Xalqlarning buyuk ko'chishlari jarayoni qaysi davrda bo'lib o'tgan?
A) IV-VII asrlar B) V-IX asrlar C) V-VII asrlar
D) IV-VI asrlar
62. AQSHda ishsizlikka qarshi kurash maqsadida tuzilgan "Ijtimoiy ishlar maxsus qo'mitasi"ga qanday vazifalar yuklatilgan edi?
1) yo'l qurish; 2) 8 mln ishsizni ish bilan ta'minlash;
3) maktablarni ta'mirlash; 4) sport majmualarini barpo etish; 5) 18-25 yoshli ishsiz fuqarolar uchun maxsus lager barpo etish
A) 1, 2, 3 B) 3, 4, 5 C) 1, 3, 4 D) 2, 3, 5
63. XII asrdayoq lotin va ibroniy tillariga tarjima qilinib, nafaqat musulmon sharqidagi, balki Yevropa mamlakatlaridagi astronomiya ilmining rivojini boshlab bergan asarni aniqlang.
A) "Ziji jadidi Ko'ragoniya"
B) "Boshlovchilar uchun dastlabki ta'lim"
C) "Samoviy harakatlar va umumiy ilmi nujum"
D) "Al-jabr val-muqobala"
64. Quyidagi qaysi voqea Qo'qon xonligida Muhammad Alixon hukmronlik qilgan yillar oralig'ida sodir bo'lgan?
A) Eron shohi Nodirshoh ichki ziddiyatlar oqibatida o'ldirildi.
B) Koreyada "Qonunlarning buyuk to'plami" nomli hujjat qabul qilindi.
C) Xitoyda II afyun urushi bo'lib o'tdi.
D) Lion to'qimachilari qo'zg'olon ko'tardilar.
65. Quyidagi voqealardan bir yilda sodir bo'lganlari to'g'ri berilgan javobni toping.
1) Rimda xristianlik boshqa dinlar bilan teng bir din deb e'lon qilindi; 2) xioniylar O'rta Osiyoga bostirib kirdi;
3) Koguryo xitoyliklarni batamom o'z hududidan surib chiqardi; 4) Rim imperiyasi 2 qismga bo'linib ketdi
A) 1, 3 B) 1, 2 C) 2, 4 D) 1, 4
66. Quyidagi ma'lumotlar orasidan to'g'rilarni toping.
1) 2003-yilda mamlakatimizning yarim milliondan ortiq aholisi axborot xizmatining muhim turi hisoblanayotgan Internetdan foydalangan bo'lsa, 2010-yilda ularning soni 6 milliondan oshdi.
2) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisida 1996-yil 26-dekabrda "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida" qonun qabul qilindi.
3) O'zbekistonda 1996-yilda ommaviy axborot vositalarini demokratiyalashtirish va qo'llab-quvvatlash bilan shug'ullanuvchi ijtimoiy-siyosiy jamg'arma tashkil etildi.
4) 2004 yil aprel oyida "uz" hududida ro'yxatga olingan WEB saytlar soni 2600 taga yetdi.
5) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisida 1998-yil 24-aprelda "Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida" qonun qabul qilindi
A) 2, 3, 4 B) 1, 3, 4 C) 2, 4, 5 D) 1, 3, 5
67. 1904-yildagi Fransiya va Buyuk Britaniya o'rtasidagi bitimga ko'ra, Marokash sultoni o'z vazifasini bajara olmaslik ehtimoli borligi va shunday bo'lib qolsa Marokash hududining Gibraltar bo'g'oziga bevosita tutash bo'lgan qismini quyidagi qaysi davlatga berish belgilab qo'yildi?
A) Buyuk Britaniyaga B) Fransiya C) Ispaniyaga
D) Germaniyaga
68. Quyidagi qaysi asarlar Qadimgi Yunonistonda yaratilgan?
1) "Iliada", "Odisseya"; 2) "Rigveda", "Avesto"; 3) "Shoh Edip", "Antigona"; 4) "Olamning yaratilishi haqida afsona", "To'fon rivoyati"; 5) "Arilar", "Qushlar", "Baqalar";
6) "Eneida", "Marhumlar kitobi"
A) 2, 3, 6 B) 1, 3, 5 C) 1, 2, 4 D) 2, 4, 6
69. XVI asrda Shayboniylar va Boburiylar o'rtasida olib borilgan faol elchilik munosabatlariga asos solgan shaxslarni aniqlang.
A) Ubaydullaxon va Avrangzeb
B) Ko'chkunchixon va Bobur
C) Imomqulixon va Jahongirshoh
D) Abdullaxon II va Akbarshoh
70. Quyidagi qaysi lavozim egasi Buxoro amirligida (XIX asr) vaqf yerlaridan tushgan daromadlar hisob-kitobi va taqsimoti bilan shug'ullangan?
A) ko'kaldosh B) dodho C) mutavalli D) alloma

71. Quyidagi qaysi ma'lumotlarda tarixiy xatolikka yo'l qo'yilmagan?
 1. 1920-yil 17-sentabrda Turkiston ASSR hukumati o'lkada 8 yoshdan 40 yoshgacha bo'lgan kishilarni o'qitish va savodxon qilish to'g'risida dekret qabul qildi. 2. VKP(b) MQ O'rta Osiyo byurosi o'qituvchilar safini tozalash to'g'risidagi qarori 1933-yil 27-martda qabul qilingan edi. 3. VKP(b) MQ 1925-yil 18-iyunda o'zbek adabiyoti uchun qo'llanma hisoblangan "Partiyaning adabiyot sohasidagi siyosati to'g'risida" nomli qaror qabul qildi. 4. XX asrning 20-30-yillarida hukmron kommunistik partiyaning madaniy qurilishi siyosati asosan "shaklan sotsialistik, mazmunan milliy madaniyat"ni shakllantirishga qaratildi. 5. O'lkaning bo'lg'usi sovet kadrlarini "markscha-lenincha" ta'limot negizlarini qunt bilan o'qitishda 1920-yilda ochilgan Turkiston kommunistik universiteti alohida rol o'ynadi. 6. XX asr 20-30-yillarida yuqori malakali pedagog kadrlarlarga talab muttasil oshib borganligidan Buxoro, Samarqand, Navoiy, Angren va Xiva shaharlarida pedagogika va o'qituvchilar tayyorlash institutlari ochildi.
 A) 2, 4, 6 B) 1, 2, 3 C) 1, 3, 5 D) 4, 5, 6

72. Fransiya monarxiya ag'darilib tashlangan vaqtda (1792-yil) yakobinchilar tomonidan ilgari surilgan talablarni aniqlang.
 1) mamlakatdagi boshqaruvni izga solish uchun harbiy xuntalar tashkil etish; 2) qirolni darhol sud qilish va qatl etish; 3) Respublika e'lon qilish; 4) feodal qaramlikni butunlay tugatish; 5) inqilobiy diktaturani to'xtatish; 6) chet ellik bosqinchilarga qarshi inqilobiy urush olib borish.
 A) 2, 3, 4, 6 B) 1, 4, 5, 6 C) 1, 3, 4, 6 D) 2, 3, 5, 6

INGLIZ TILI

73. Choose the best answer.
 Fifteen years ago I bought my first calculator ... balance my checkbook.
 A) help B) helping C) helped D) to help
74. Choose the best answer.
 Pupils, let's start the lesson if you ... ready.
 A) were B) be C) is D) are
75. Choose the best answer.
 Can you turn that music down? It's really starting to get on my ...!
 A) wrinkles B) shoulders C) neck D) nerves
76. Choose the answer which correctly completes the sentence.
 One of employees, ... was a postman and also helped at the post office, went to his boss laughing heartily and showed him the letter.
 A) who B) when C) whose D) whom
77. Choose the best answer.
 Do you see what the child ... with your hat? Take it from him.
 A) does B) have done C) is doing D) has been doing
78. Choose the best answer.
 Our teacher warned us, "Send me the report as soon as possible." Our teacher warned us ... as soon as possible.
 A) sending her the report B) to send her the report
 C) to send me the report D) sent her the report
79. Choose the sentence with the meaning below.
 Jasur is always lazy. He failed a test last week.
 A) If he weren't so lazy, he would pass that test.
 B) If he hadn't been so lazy, he would pass that test.
 C) If he weren't so lazy, he would have passed that test.
 D) If he had passed that test, he would have been so lazy.

80. Choose the answer which correctly completes the sentence.
 My wife reminded me, "I am having dinner with my friend after work."
 My wife reminded me that ... friend after work.
 A) I was having dinner with my
 B) I am having dinner with my
 C) she is having dinner with her
 D) she was having dinner with her
81. Choose the answer which correctly completes the sentence.
 Jellyfish are probably ... predators on Earth.
 A) most numerous B) the most numerous
 C) most numerous of D) many numerous
82. Change the sentence into Indirect Speech.
 "Please do as I say," he begged me.
 A) He was pleased to do as he said.
 B) He begged me to do as he said.
 C) He begged to do as I said.
 D) He begged me did as he said.
83. Choose the best answer.
 My brother ... do it without my help.
 A) ought to be B) was able to C) should be
 D) might to
84. Choose the best answer.
 My parents let me ... what I wanted when I was young.
 A) do B) to do C) doing D) does
85. Choose the best answer.
 ... you ever ... to Japan? – Yes, I ... there the year when there was an earthquake.
 A) Have/ gone/ had been B) Have/ been/ was
 C) Do/ go/ would be D) Will/ go/will be
86. Choose the best answer.
 Brian wasn't really hurt in the accident; he just ... his arm.
 A) shown B) bruised C) given D) broke
87. Choose the answer which correctly completes the sentence.
 Historians don't know how the ancient Egyptians ... move huge pieces of stone to build the pyramids.
 A) should B) could C) may D) must
88. Choose the best answer.
 Scarcely had he entered the house ... someone else rang the bell.
 A) than B) when C) and D) that
89. Choose the correct answer.
 He promised that he ... call my mother to wish her a happy birthday.
 A) would get used to B) would C) used to D) will
90. Choose the best answer.
 I'll be back from the business trip next Friday. ... good-bye everybody!
 A) Right then B) Before then C) Since then
 D) Until then
91. Choose the answer which correctly completes the sentence.
 The couple who were celebrating their anniversary had been ... married for fifty years.
 A) the happiest B) happily C) happy
 D) more happily

92. Choose the answer which correctly completes the sentence.

If anything happens to the children, you may go to ... hospital to get medical aid.

- A) several B) some C) no D) any

Read the text. Then choose the correct answer for each question below (93-96).

Ants have been around for about 100 million years and can be found in almost every land environment. They are social insects that live together in large groups or colonies. Most make their homes in underground tunnels and chambers. But some ants are different. Carpenter ants carve tunnels in wood (but don't eat it). In the South American rain forest, many ants live in trees. And Army ants don't build at all. They travel in big groups looking for food.

Ants communicate by touching each other with their antennae. They show other ants where food is by making a path with a chemical called a "pheromone". This leaves a scent for the other ants to follow.

Each ant has a specific job. The queen lays eggs to populate the colony. Workers collect food, feed members of the colony, and enlarge the nest. Soldiers are large workers that defend the colony.

93. According to the text, all of the following statements are FALSE, EXCEPT:

- A) *The job of the queen ant is to reproduce.*
 B) *Soldiers are engaged in enlarging the nest.*
 C) *Ants all over the world live in underground tunnels and chambers.*
 D) *Army ants' job is to guard the colony.*

94. The author points out in the text that carpenter ants received their name because...

- A) *these ants build structures out of wood pulp and saliva.*
 B) *these ants eat trees.*
 C) *these ants assist carpenters when they work with wood.*
 D) *these ants make tunnels in wood.*

95. Which sense do ants use to follow pheromones?

- A) *smell* B) *taste* C) *touch* D) *sight*

96. Ants are social insects that...

- A) *use a "pheromone" to find food and lay eggs.*
 B) *can be found almost all over the world.*
 C) *live in trees and feed on wood.*
 D) *build tunnels and set their TV antennae.*

Read the text. Then choose the correct answer for each question below (97-100).

For many environmentalists, the world seems to be getting worse. They have developed a hit-list of our main fears: that natural resources are running out; that the population is ever growing, leaving less and less to eat; that species are becoming extinct in vast numbers, and that the planet's air and water are becoming ever more polluted.

But a quick look at the facts shows a different picture. First, energy and other natural resources have become more abundant, not less so, since the book "The limits to growth" was published in 1972 by a group of scientists. Second, more food is now produced per head of the world's population than at any time in history. Fewer people are starving. Third, although species are indeed becoming extinct, only about 0.7% of them are expected to disappear in the next 50 years, not 25-50%, as has so often been predicted. And finally, most forms of environmental pollution either to have been exaggerated, or are brief-associated with the early phases of industrialization and therefore best cured not by restricting economic growth, but by **accelerating** it.

97. All of the statements are true EXCEPT:

- A) *The number of starving people has decreased in the world in recent years.*
 B) *Environmentalists take a pessimistic view of the world for a number of reasons.*
 C) *It would be best to attempt to slow down economic growth.*
 D) *Some pollution problems have been correctly linked to industrialisation.*

98. What subject is the second part of the text mainly concerned with?

- A) *the problems of pollution and extinction*
 B) *solutions to the environmental issues*
 C) *the reasons for negative changes of the environment*
 D) *positive approaches to environmental problems*

99. The word "accelerate" in the passage means...

- A) *to stop* B) *to slow down* C) *to quicken*
 D) *to reduce*

100. What is the main idea of the text?

- A) *Negative aspects of the world's problems are mostly dominant.*
 B) *According to some facts, the environmental situation in the world is not very bad.*
 C) *Environmental problems should be solved in an unfavourable way.*
 D) *The amount of problems is increasing rapidly in the world.*

Read the text. Then choose the correct answer for each question below (101-104).

Sleep researchers have found that people can make themselves wake up at a given time simply by deciding to do so before they go to sleep. Scientists took two groups of volunteers and, at nightfall, told one group that they would be woken at 6 a.m. and the other that they would be woken at 9 a.m. The sleepers' levels of the hormone adrenocorticotropin, which is known to cause spontaneous awakening, were then measured. In each group, there was a rise in the levels of the hormone one hour before the volunteers expected to get up. The three-hour difference between the rise in hormones in the two groups suggests that the body can be programmed to wake up on command.

101. The result of the experiment shows that the people under research...

- A) *can be inspired to wake up by order.*
 B) *suffered from insomnia.*
 C) *were representatives of the same family having the same habits.*
 D) *could be awakened only by their relatives.*

102. Choose the statement which is the closest in its meaning to the given one

"the body can be programmed to wake up on command".

- A) *it turned out possible to code a person's slumber to awake at a particular time*
 B) *the human having a good command of language can act as a programmer*
 C) *people often command the services of sleeping drugs*
 D) *sleep researchers order to sleep as much as possible*

103. The research in the passage points out that...

- A) *scientists conducted their research only among heavy sleepers.*
- B) *people who wake up at 6 a.m. and who wake 9 a.m. have the same hormones.*
- C) *one can definitely suggest the time of awakening.*
- D) *the hormones that wake people up have a three-hour long cycle.*

104. The researchers carried out their experiment...

- A) *during a solar day* B) *at dusk*
- C) *over the entire circadian period* D) *during lunar day*

Read the text. Then choose the correct answer for each question below (105-108).

Toys have been around as long as people have. The first toys were things kids found lying around: stones, clay, and sticks. Most of our clues about the earliest games come from things ancient peoples left behind. Clay marbles dating back to 3000 B.C. have been found.

Kids still play with simple things like blocks, clay, and sticks. Some toys are timeless. They've been around for a long time and are still popular.

The boomerang was really a weapon invented by Australian Aborigines. It is thought to be about 10,000 years old. Now the boomerang is sold as a toy all over the world.

Lincoln Logs were first sold in 1916. They have been popular for more than 99 years. John Lloyd Wright made them. His father was Frank Lloyd Wright, a famous U.S. architect. The younger Wright decided to make the toy after seeing the construction of the Imperial Hotel in Tokyo, which his father designed. Jack Odell invented matchbox cars for his daughter in 1952. He created a brass miniature of a Road Roller car. He put it in a matchbox-size container for his daughter to take to school.

105. According to the text, the boomerang was probably invented to...

- A) *prevent fires in Australia.*
- B) *hunt animals.*
- C) *keep the Aborigines from being bored.*
- D) *amuse children all over the world.*

106. According to the passage, which toy did ancient children play with that is still popular today?

- A) *Road rollers.* B) *Matchbox cars.* C) *Marbles.*
- D) *Lincoln logs.*

107. According to the text, Lincoln Logs were created by...

- A) *John Lloyd Wright.* B) *Australian Aborigines.*
- C) *Jack Odell.* D) *Frank Lloyd Wright.*

108. All of the following statements are TRUE, EXCEPT:

- A) *Lincoln Logs appeared in the beginning of the 19th century.*
- B) *Some toys are everlasting.*
- C) *Matchbox cars were invented for a girl.*
- D) *Initially children played with toys created by nature.*

ONA TILI VA ADABIYOTI

1. Furqat qalamiga mansub aruz vaznining qoidalari haqidagi asar to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.
A) "Ilmi ash'orning qoidai avzoni" B) "Mezon ul-avzon"
C) "Muxtasar" D) "Aruz haqida"
2. *Tuz-namakni, ota-onani, ustozni qanday qadrlash lozim bo'lsa, kitobni ham shunday e'zozlash lozim.*
Ushbu gapda nechta so'z birikmasi qatnashgan?
A) 7 ta B) 6 ta C) 5 ta D) 4 ta
3. *Muniso, to'kmay yigirma yetti yosh (1),
Vah, yigirma yetti uzra yetti yosh (2),
Yosh kibi mashg'ulliq qilmoq nedur,
Har qachonkim suhbatingg'a yetti yosh (3).*
Ushbu she'rdagi raqamlangan so'zlardan ot turkumiga mansub so'zlarni aniqlang.
A) 1, 2, 3 B) 1, 3 C) 1, 2 D) 2, 3
4. Qaysi xalq dostoni qahramonining "Aziz boshing oyog'imga teng emas..." – degan e'tirofi orqali o'zbeklik g'ururi aks ettirilgan?
A) "Kuntug'mish"da Kuntug'mish
B) "Alpomish"da Alpomish C) "Rustamxon"da Rustamxon
D) "Ravshan"da Ravshan
5. Qaysi shoir o'z she'rlaridan birida yotish uchun chora izlab charxpalakni o'ylab topganlari, shamol tegirmonini, samo laynerini ijod qilganlari uchun "Rahmat deyman yorug' dunyoda
Dangasalar borligi uchun" deb yozgan?
A) Abdulla Oripov B) Erkin Vohidov C) Omon Matjon
D) Muhammad Yusuf
6. Qaysi qatorda imloviy jihatdan noto'g'ri yozilgan so'z mavjud?
A) Kunlardan bir kuni Umarshayx a'yonlari bilan o'tirgan ekan, bir kabutar uchib kelib ayvon peshtoqiga qo'nibdida, sayrayveribdi.
B) Kabutarni tutib keltirib, oyog'idagi mis halqani yechib qarashsa, ichidan bir xat chiqibdi.
C) O'zbekiston xalqining milliy taraqqiyot yo'lidagi bosh g'oyasi mamlakatimizda erkin va farovon hayot yaratishdir.
D) Mirzoning hushyorligi, topqirligiga qoyil qolgan Umarshayx a'yonlariga qarab: "Qilichni emas, aql-idrokni ishga solmoq lozimdir, xabar qilinglar, barcha qovun sayliga otlansin", – debdi.
7. "... haq so'z adosinda daler(botir, qo'rqmas)".
Alisher Navoiy haqida aytilgan ushbu fikrlar quyidagi qaysi asarda keltirilgan?
A) "Risola"da B) "Makorim ul-axloq"da
C) "Nasoyim ul-muhabbat"da D) "Habib us-siyar"da
8. Qaysi juftliklarda o'zaro shakldosh qo'shimchalar ishtirok etmagan?
1) qovurma (lag'mon) - qovurma (harakat inkori);
2) bog'lar (o'rin-joy oti) - bog'lar (harakat);
3) terim (tananing tashqi qoplamasi) - terim (faoliyat-jarayon oti);
4) ko'zlar (inson a'zosi) - ko'zlar (harakat);
5) qaynatma (sho'rva) - qaynatma (harakat inkori)
A) 2, 4 B) 2, 3, 4 C) 1, 2, 3, 4 D) 2, 3
9. Qaysi gapdagi barcha so'zlarning asosi omonimlik xususiyatiga ega?
A) Yolg'iz otning changi chiqmas.
B) O'z uyim – o'lan to'shagim.
C) Shamol toy ekan, kuchga boy ekan.
D) Bo'shagan qoplarni olib qo'ydim.

10. Tasavvufda haqiqiy ishqdan bexabar kimsalar yoki dunyoga ko'ngil bergan nafs bandalari qanday atama bilan yuritiladi?
A) dunyo B) solik C) tarso D) xaloyiq
11. "Yevgeniy Onegin" asarini kimlar o'zbek tiliga tarjima qilgan?
A) Mirza Kenja'bek va Xayriddin Sultonov
B) Mirkarim Osim va Mirza Kenjabek
C) Oybek va G'.G'ulom
D) Oybek va Mirza Kenjabek
12. Bolalikdan boshlangan do'stlik insonning keyingi ulg'aygan va kamol topgan davrida alohida ahamiyatga ega.
Gapdagi yasama so'zlar tarkibida nechta ko'makchi morfema mavjud?
A) 7 ta B) 10 ta C) 8 ta D) 9 ta
13. Quyidagi ko'chirma gapda ishlatiladigan tinish belgilari tartibi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?
Xalqimiz deydi Sabr tagi sariq oltin
A) ikki nuqta, qo'shtirnoq, qo'shtirnoq, nuqta
B) ikki nuqta, qo'shtirnoq, tire, qo'shtirnoq, nuqta
C) ikki nuqta, qo'shtirnoq, tire, qo'shtirnoq
D) ikki nuqta, qo'shtirnoq, tire, nuqta, qo'shtirnoq
14. *Qatrayam nochiz, ammo zoti qulzum Turdiman,
Kelturan amvojga bahri talotum Turdiman.*
Ushbu misralarda qanday she'riy san'atlar yaratilgan?
1) ruju; 2) mubolag'a; 3) tazod; 4) tashbeh; 5) tarse'.
A) 1, 2, 3, 5 B) 2, 3, 4 C) 2, 3, 5 D) 1, 2, 3, 4, 5
15. **Vatan! Taqdiringning toshi bemiqdor,
Aytgin, fido bo'lay qaysi bir toshga?**
**Birovning do'stlar-u xoriylari bor,
Mening hech kimim yo'q - o'zingdan boshqa.**
Ushbu she'riy parchada nechta gap mavjud?
A) 6 B) 5 C) 4 D) 3
16. *Jozibador qo'shiqlar el-elatlarni birlashtiradi, ularni tinch-totuv va osoyishta yashashga, Vatanni har jihatdan yuksaltirishga, ko'z qorachig'iday asrashga va uni himoya qilishga da'vat etadi.*
Berilgan gapda ishtirok etgan yasama fe'llar haqidagi noto'g'ri hukmni belgilang.
A) 2ta sodda yasama fe'l ishtirok etgan.
B) bitta sodda yasama fe'l tarkibida nisbat qo'shimchasi mavjud
C) 5ta yasama fe'l ishtirok etgan
D) sodda yasama fe'llarning yasash asosi bir xil mustaqil so'z turkumiga mansub emas
17. Qaysi gaplarda teng bog'lovchining mazmuniy munosabatni ro'yobga chiqarishiga ko'ra ikki turi qatnashgan?
1. Menda na bol tayyorlamoq mashaqqati va na uya solmoq kulfati bor. 2. Ipak kiyim-kechaklar dazmollanmagani ma'qul, agar zarur bo'lsa, teskari tomonidan yoki ustiga zig'ir tolasidan to'qilgan mato qo'yib, qattiq qizimagan dazmol bilan dazmollanadi. 3. Nobel neft va portlovchi moddalar ishlab chiqarishdan orttirgan boyligini nafaqat fizik hamda ximiklarga, balki vrachlar, adabiyotshunoslar va tinchlikparvatlarga ham berilishini vasiyat qilib ketdi. 4. O'g'il-qizlarimiz biz yetolmagan orzularga erishishi, shuningdek, biz chiqolmagan cho'qqilarni zabt etishi muqarrar, chunki ularning jo'shqin qalbida jahoniy aql va tafakkur mash'ali yolqinlanib turibdi. 5. Agar vaqti kelsa, tog'lar ham yemiriladi, lekin yoshlikda inson qalbiga ekilgan ezgulik urug'lari toabad zavol topmaydi, chunki ular inson umrining unutilmas davrida erishgan bebaho ne'matlardir.
A) 3, 5 B) 1, 3, 5 C) 2, 3, 4 D) 1, 3

18. Nodiraning "Doda keldim..." g'azali haqidagi quyidagi hukmlarning nechitasi to'g'ri?
1) lirik qahramon yorni "shah"ga, o'zini "benavo"ga o'xshatadi; 2) qofiyadagi so'zlarning barchasi o'zbekcha egalik qo'shimchasi bilan kelgan forscha-tojikcha so'zlardan tashkil topgan; 3) lirik qahramon gapni to'g'ridan to'g'ri yorga murojaatdan boshlab, g'azalning deyarli har baytida "yor" so'zini ishlatadi; 4) g'azalda tazod san'atining go'zal namunalari uchraydi
A) 1 tasi B) 3 tasi C) 2 tasi D) 4 tasi
19. Kiritma gaplar haqidagi to'g'ri ma'lumotlarni aniqlang.
1) kiritma gaplar, asosan, kitobiy uslubga xos; 2) kiritma gaplar, asosan, gap o'rtasida keladi; 3) kiritma gaplar orqali ifodalangan qo'shimcha ma'lumot gapning umumiy mazmuniga bog'liq bo'lmaydi; 4) kiritma gaplar gap tarkibidan tushirib qoldirilsa ham, gapning asosiy ma'nosiga ziyon yetmaydi.
A) 1, 2, 3, 4 B) 1, 2, 4 C) 1, 3, 4 D) faqat 1
20. *Ko'zlarim hali harf tanimas edi,
Qalam ushloymasdi hali qo'llarim.
Kapalak izidan quvib tinmasdim,
Yulduzlarni sanar edim tunlari.* (M. Boboyev)
She'riy parchada necha o'rinda qarashlilik ma'nosini bildirgan egalik qo'shimchalari qo'llangan?
A) 5 B) 3 C) 4 D) 2
21. *"Sulton Abulgosim Bobur (1422-1457) so'zamol va hunarparvar podshoh edi. U ba'zi paytlarda ulug' amir (Alisher Navoiy) bitgan turkiycha, forsiycha she'rlarni mutolaa qilar, ta'bining qudrati va sharo'fatli so'zlarining shirinligidan hayratlanar, ta'ajjubga tushar, ziyrakligi, muloyimligi uchun ofarinlar o'qir edi".*
Alisher Navoiy haqidagi ushbu fikrlar qaysi manbada keltirilgan?
A) Nizomiy Aruziy Samarqandiy "Majma'un-navodir"
B) Mirxond "Ravzat us-safo"
C) Xondamir "Habib us-siyar"
D) Davlatshoh Samarqandiy "Tazkirat ush-shuaro"
22. Qaysi muallif o'z asarida o'zi haqida "... bu kitobni tuzgan, toat yo'lida tizgan, ma'siyat yobonini kezgan, oz ozuqliq, ko'p yoziqlu..." deb qayd etgan?
A) Nosiruddin Rabg'uziy B) Ahmad Yugnakiy
C) Yusuf Xos Hojib D) Mahmud Koshg'ariy
23. "U oilani bog'ish uchun kosiblik, mizkorlik, aravakashlik qiladi, bosmazonalarda harf teruvchi bo'lib ishlaydi".
Mazkur parcha qaysi adib tarjimayi holidan keltirilgan?
A) G'afur G'ulom B) Maqsud Shayxzoda C) Oybek
D) O'tkir Hoshimov
24. Qaysi qatorda ya'ni ergashtiruvchi bog'lovchisi qo'shma gap qismlarini bog'lamagan?
A) O'tgan yili oliy ta'lim muassasalariga qabul qilishning takomillashtirilgan tizimi joriy etildi, ya'ni test sinovlariga informatika bo'yicha savollar kiritildi.
B) Til o'z vazifasini bajarmasa, qo'l ishga tushadi, ya'ni insoniy munosabat o'rnini hayvoniy xatti-harakat oladi.
C) O'sha davrlarda adabiyot tarixi darsi xronologik va tematik xarakterga ega emas edi, ya'ni adabiyot tarixi dars sifatida o'tilmasdi.
D) Tilning bilish borasidagi ahamiyati oddiy bilim bilan cheklanmay, ma'rifatni, ya'ni bilishning eng oddiy martabasini ham o'z ichiga oladi.
25. Berilgan misollardan nechtasida tovush tushishi faqat so'z yasovchi qo'shimcha ta'sirida sodir bo'lgan?
1. Sening ulug'liging, ustuvorliging,
Bizni bilmaganga bo'lsin yorlig'ing.
2. Ayрилиq o'tiga bag'rini dog'lab,
Borayotir qalmoq elni so'roqlab...
3. Eliboylar bundan ko'chib boradi,
Qoldi endi o'ynab o'sgan elim deb.
4. Dudog'ing guldun xushbo'y, yuzlaring undan xushro'y,
Kel, oppog'im, bag'ringa jajji boshginangni qo'y.
A) ikkitasida B) uchitasida C) bittasida
D) to'rtitasida
26. Angladimki, olamda
Yurt tanho, Vatan tanho,
Nokaslar emas, yo'q, yo'q,
Yolg'iz Sen baland, tanho.
Ushbu gapdagi kesimlar to'liq ko'rsatilgan qatorni toping.
A) tanho, tanho, baland, tanho
B) angladimki, yolg'iz, baland, tanho
C) angladimki, tanho, tanho, baland, tanho
D) yurt tanho, Vatan tanho, baland, tanho
27. Oyog'ingniz yugursa, maqsadingizga yetkazadi, tilingiz yugursa, boshingizga falokat keltiradi.
Ushbu gapda ajratib ko'rsatilgan so'z ma'nosi qaysi usulda ko'chgan?
A) sinekdoxa B) vazifadoshlik C) metonimiya
D) metafora
28. Ulardan biri akamning qayerdaligini so'ragan edi, men uning ertalab o'sha yerga, anhorga, ketganligini aytdim, o'zim ham ular bilan oldinma-ketin anhorga jo'nadim, yarim soatdan so'ng u yerga yetib bordik.
Ushbu gapda qatnashgan ravishlar haqida berilgan hukmlardan nechitasi noto'g'ri?
1) ravishning ikki ma'no turi to'ldiruvchiga tobelanib kelgan;
2) gapda 4ta yasama 1ta tub ravish qatnashgan;
3) ravishning tuzilishiga ko'ra 3 turi qatnashgan; 4) gapda qatnashgan ravishlar hokim qismga bitishuv va boshqaruv usulida birikkan
A) 2tasi B) 4tasi C) 1tasi D) 3tasi
29. "... zulm naqadar kuchaysa, uning umri shuncha qisqa bo'lishi tajribalar bilan sobitdir" kabi haqqarparlik bilan sug'orilgan fikr qaysi asarda uchraydi va qaysi qahramon tilidan bildirilgan?
A) "Mehrobdan chayon" romanida Anvar tilidan
B) "Abulfayzxon" fojiasida Ibrohimbiy tilidan
C) "Qutlug' qon" romanida Shokir ota tilidan
D) "O'tkan kunlar" romanida Yusufbek hoji tilidan
30. Olisroqda gulxan yoqildi.
Ushbu gapning kesimi aniq nisbatdagi fe'lga aylantirilganda sodir bo'ladigan grammatik o'zgarish(lar) to'liq ko'rsatilgan javobni aniqlang.
1) fe'lga ifodalangan zamon ma'nosi o'zgaradi; 2) o'timsiz fe'l o'timli fe'lga aylanadi; 3) ushbu gapning egasi to'ldiruvchiga aylanadi; 4) ushbu gap egasi yashiringan gapga aylanadi.
A) 1, 2 B) 2, 3, 4 C) 1, 2, 3, 4 D) 2
31. Ot+ot shaklidagi qo'shma sifatlarni belgilang.
1) devsiyat; 2) bodomqovoq; 3) xushovoz; 4) suvosti;
5) yoqavayron; 6) duotalab; 7) jonkuyar
A) 1, 3, 5, 7 B) 1, 2, 5, 6 C) 2, 3, 4, 7 D) 1, 2, 4, 6
32. Quyidagilarning qadriga yo'qotilgandan keyin yetamiz: yoshlik, sog'lik.
Gapdagi mavhum otlar tarkibidagi sirg'aluvchilar miqdorini aniqlang.
A) 7 ta B) 6 ta C) 5 ta D) 8 ta

33. Biz atrofimizdagi davlatlar bilan faqat do'stona aloqalarni bog'lashga tayyormiz.

Gapdagi yasama so'zlar haqidagi to'g'ri hukmni belgilang.

- A) gapdagi yasama so'zlarning yasaliish asosi bir xil so'z turkumiga mansub
- B) yasama so'zlar faqat bitishuv usuli bilan hokim so'zga tobelanib kelgan
- C) barcha yasama so'zlarning yasaliish asosi omonimlik xususiyatiga ega
- D) yasama ot yasama otga tobelangan

34. Berilgan bir necha bosh gapli murakkab qo'shma gaplarning qaysilarida ergash gap bosh gaplar tarkibidagi har xil gap bo'lagi vazifasida kelgan olmoshning ma'nosini izohlab kelgan?

1. Bizga shu ma'lumki, siz ham shuni bilasizki, g'alabaga erishish oson emas. 2. Kim ertalab vaqtli uyg'onsa, uning ishlari samarali bo'ladi, kun davomida kayfiyati yaxshi bo'ladi. 3. Kimning qalbi pok bo'lsa, uning ishlari o'z-o'zidan yurishib ketaveradi, hamma unga madadkor bo'ladi. 4. Kimki ko'p o'qisa, uning dunyoqarashi kengayadi, fikrlarini hamma hurmat qiladi.

- A) 1, 3 B) 1, 2, 4 C) 1, 2, 3, 4 D) 2, 4

35. Quyidagi gapda ot so'z turkumiga oid nechta so'z tobe qism vazifasini bajara olgan?

Auditoriyaga xushbichim, o'ziga yarashgan kostyum-shim, yupqa qavilgan beqasam to'n kiygan, oyog'iga zamonaviy tuflari kiygan, bo'yniga chiroqli galstuk, ko'ziga tilla gardishli ko'zoynak taqqan, kalta mo'ylovli, moshrang do'ppili kishi viqor bilan kirib keldi.

- A) 11 ta B) 10 ta C) 13 ta D) 12 ta

36. O'rttirma darajadagi yasama sifat qo'llangan gapni aniqlang.

- A) Ular uchun eng bexatar yo'l Toshkent edi.
- B) Insonning hayot yo'li g'oyat murakkab.
- C) Hamma yoq top-toza.
- D) Ko'm-ko'k osmonda suzib yurgan paxtadek yumshoq bulutlar yonayotgandek loyullardi.

TARIX

37. Tropik Afrikada joylashgan Nyasaland qaysi davlat mustamlakasi bo'lgan?

- A) Belgiya B) Fransiya C) Ispaniya
- D) Buyuk Britaniya

38. 1601-yilda Jonibek Sultonning ikkinchi o'g'li, ... hokimi Boqi Muhammad Buxoro taxtiga o'tqazildi.

- A) Balx B) Samarqand C) Toshkent D) Buxoro

39. Quyidagi voqealardan bir yilda sodir bo'lganlari to'g'ri berilgan javobni toping.

- 1) Rimda xristianlik boshqa dinlar bilan teng bir din deb e'lon qilindi; 2) xioniyalar O'rta Osiyoga bostirib kirdi; 3) Koguryo xitoyliklarni batamom o'z hududidan surib chiqardi; 4) Rim imperiyasi 2 qismga bo'linib ketdi
- A) 1, 2 B) 1, 3 C) 1, 4 D) 2, 4

40. 1917-yilgi yuzaga kelgan siyosiy vaziyatni baholashda Turkiston o'lkasida mavjud siyosiy kuchlardan qaysi biri Turkiston mustaqilligini faqat hukmron mustamlakachilarga qarshi g'azovot boshlash, ya'ni qurolli qarshilik ko'rsatish yo'li bilan qo'lga kiritishni yoqlab chiqqan edi?

- A) Yosh xivaliklarning qadimchilar guruhi
- B) Sho'royi Islomiyi tarkibidan ajralib chiqqan qadimchi ulamolar
- C) Ilg'or ziyoli jadidlar
- D) Ishchi soldat deputatlari sovetlari

41. Qadimgi Bobil podshosi Xammurapi chiqargan qonunlarda qarzi bor kishilarga nisbatan qanday jazo chorasi qo'llanilgan?

22. To'tini o'z ismini aytishga o'rgatishadi. Ismni ko'p takrorlashadi. Keyin bir kuni, ehtimol, bezosdanmi yoki o'z kayfiyatini bildirish uchunmi, u talab qilinayotgan so'zni aytib yuboradi va shu ondayoq mukofot oladi. Berilgan parchada nechta fe'l tarkibida nisbat qo'shimchasi ishtirok etgan?
A) 6 B) 5 C) 7 D) 4
23. Furqatning qaysi g'azalida yorning ko'zlari yonboshlab yoy tortayotgan ikki hindu bolasiga o'xshatilib, tashbehning go'zal namunasi yaratilgan?
A) "Bormasmiz" radifi g'azalida
B) "Tortadur" radifi g'azalida
C) "Adashganman" radifi g'azalida
D) "Surating" radifi g'azalida
24. Qaysi gaplarda narsaning o'lchovini ifodalash uchun qo'llangan hisob so'z alohida olinganda predmetlik ma'nosini bildiradi?
1. Shu payt bir bog' o'tinni yelkasiga ortgancha eshikdan akam kirib keldi. 2. U darrov hushini yig'ib oldi, qo'lini yuvdi-da, bir litr suv solingan idishni ko'tarib oshxonadan chiqdi. 3. Burunga kuniga 3-4 tomchi dori tomizib turish kerak. 4. Yuz gramm unni idishga solib, ustidan uchta tuxum chaqib soling va ikkovini yaxshilab aralashtiring.
A) 1, 3, 4 B) 1, 3 C) 1, 2, 3 D) 2, 4
25. To'tini o'z ismini aytishga o'rgatishadi. Ismni ko'p qaytarishadi. Bir kuni, ehtimol, bezosdanmi yoki o'z kayfiyatini bildirish uchunmi, u talab qilinayotgan so'zni aytadi va shu ondayoq mukofotlanadi. Berilgan parchada mustaqil so'z turkumlariga mansub bo'lmagan birliklar necha o'rinda qo'llangan?
A) 5 B) 4 C) 6 D) 7
26. Qaysi gap faqat ega, to'ldiruvchi, kesimdan tashkil topgan?
A) Xalq bor yerda haqlik bor.
B) Bulbulni tinglashni sevaman.
C) Bilim mehnat bilan, tilak g'ayrat bilan go'zal.
D) Odamni har doim aql yuksaltiradi.
27. Qaysi gapda birinchi qo'shimchasi shakl yasovchi bilan, ikkinchi qo'shimchasi sifat yasovchi bilan omonim bo'la oladigan so'z ega vazifasida kelgan?
A) Sizga jo'shqinlik yetishmayapti.
B) Ishsizlik ildiziga bolta urdik.
C) Bilimdon va tadbirkor raqobatbardosh yoshlar vatanimizning kelajagi hisoblanadi.
D) Hasharga yig'ilganlar fidokorona ishladi.
28. Ulardan biri akamning qayerdaligini so'ragan edi, men uning ertalab o'sha yerga, anhorga, ketganligini aytdim, o'zim ham ular bilan oldinma-ketin anhorga jo'nadim, yarim soatdan so'ng u yerga yetib bordik. Ushbu gapda qatnashgan ravishlar haqida berilgan hukmlardan nechitasi noto'g'ri?
1) ravishning ikki ma'no turi to'ldiruvchiga tobelanib kelgan;
2) gapda 4ta yasama 1ta tub ravish qatnashgan;
3) ravishning tuzilishiga ko'ra 3 turi qatnashgan; 4) gapda qatnashgan ravishlar hokim qismga bitishuv va boshqaruv usulida birikkan
A) 3tasi B) 1tasi C) 2tasi D) 4tasi
29. - Odamlar sizni qattiq hurmat qilishadi, opa, - dedi Kamol astoydil kuyinib, - sha'ningizga dog' tushiradigan bunaqa ishlarga izn bermang. Ushbu gapda qatnashgan fe'llar haqida berilgan noto'g'ri hukm(lar)ni toping.
1) gapda qatnashgan fe'llar kesim, hol, aniqlovchi vazifalarini bajargan; 2) kesim vazifasini bajargan aniq nisbatdagi fe'l 2 o'rinda qatnashgan; 3) gapda qatnashgan bitta fe'l uchta so'zni bevosita o'ziga tobelantirgan; 4) gapda qatnashgan fe'lning sifat-dosh shakli sifatlovchi aniqlovchiga nisbatan tobe bo'lak vazifasini bajargan
A) 3tasi B) 4tasi C) 2tasi D) 1tasi
30. Hol ergash gapli qo'shma gap(lar)ni aniqlang.
1. Kimki o'zining ma'naviy quvvatidan foydalanmasa, bu quvvat tark etadi.
2. Ichiqoralik shunday illatki, u odamning dilini har doim xira qiladi.
3. Agar sen yerga mehringni bersang, u senga rizq beradi.
4. G'o'zalar miriqib suv ichsin deb, suv tekis oqizildi.
A) 1, 3 B) 3, 4 C) 1, 2, 3, 4 D) 1, 3, 4
31. Munisning "Falak shabgun ko'ngul dudin namoyon etdigumdandur" deb boshlanadigan she'ri kimning g'azaliga bog'langan muxammas hisoblanadi?
A) Mashrab B) Bobur C) Navoiy D) Fuzuliy
32. Berilgan qaysi asarlar E.A'zamovning asarlari sanaladi?
A) "Javob", "Otoyining tug'ilgan kuni"
B) "Galatopaga qaytish", "Bir toychoqning xuni"
C) "Yozning yolg'iz yodgori", "Ko'ngil ozodadir"
D) "Otoyining tug'ilgan kuni", "Bir toychoqning xuni"
33. Singlim deymi,
Onam deymi,
Hamdard-u hamxonam deymi,
Oftobdan ham o'zing mehri
Ilig'imsan, Vatanim. (Muhammad Yusuf)
Ushbu she'riy parchada yasama so'zlar necha o'rinda qo'llangan?
A) 4 B) 1 C) 3 D) 2
34. Quyida keltirilgan gapdagi yasama so'zlar sonini aniqlang. Sen o'z zanjirlaring ichida eng uqubatlisi, eng og'riqlisi bo'lgan tobelik va mutelik zanjiridan endi xalossan.
A) 6 B) 5 C) 4 D) 3
35. Qaysi asarda "Echki faqat ovqat bilan semiradi, echki muloyim gap bilan semirmaydi" degan hikmatli so'zlar berilgan?
A) "Yatimat ud-dahr" B) "Mahbub-ul qulub"
C) "Zarbulmasal" D) "Nasihatlilar"

36. Qaysi gapda metafora usulida ma'no ko'chishi uchramaydi?
 A) *Chanqab ketganimdan men ham bir kosani simirdim.*
 B) *Yigitlar oltin davr – talabalik yillari haqida suhbatlashib o'tirishardi.*
 C) *Yigitning uylanayotganini eshitgan qizning qalbi yaralandi.*
 D) *Tun o'z o'rnini tongga bo'shatib berdi.*

TARIX

37. Lotin Amerikasi davlatlariga yordam berishga qaratilgan "Taraqqiyot yo'lidagi ittifoq" dasturining tashabbuskori bo'lgan AQSh prezidentini aniqlang.
 A) *L.Jonson* B) *J.Kennedi* C) *R.Nikson*
 D) *D.Eyzenxauer*
38. Qanday jarayon Xiva savdogarlariga Qobul bozorlarida erkin savdo qilish huquqini berdi?
 A) *Afg'oniston va Buxoro o'rtasidagi savdo-sotiq munosabatlarida keskinlikning kuchayganligi*
 B) *afg'on savdogarlariga Xiva orqali boj to'lovlarisiz Rossiyaga o'tishlariga ruxsat berilganligi*
 C) *Xivadan Hindistonga chiqariladigan mollarning bir qismini Afg'oniston bozorlarida sotilishiga ruxsat berilishi*
 D) *Muhammad Rahimxon I ning shoh Mahmudni taxtga o'tirishiga ko'rsatgan yordami*
39. XIX asr oxirlarida Germaniya qishloq xo'jaligida mehnat unumdorligini oshirish va hosildorlikning ortishini ta'minlagan omillarni to'g'ri ko'rsating.
 1. Yunkerlar xo'jalik yuritishda yollanma mehnatdan foydalanishga o'tdi.
 2. Chet el mutaxassislari qishloq xo'jaligiga keng jalb etildi.
 3. Qishloq xo'jaligida amerikacha yo'l qo'llanildi.
 4. Qishloq xo'jaligida qo'llash uchun yaratilgan texnikadan umumli foydalanishga alohida e'tibor qaratildi.
 5. Keng miqyosda mineral o'g'itlardan foydalanishga o'tildi.
 6. Mustamlakalardan keltirilgan qullar mehnatidan foydalanildi.
 A) 2, 3, 6 B) 1, 2, 4 C) 4, 5, 6 D) 1, 4, 5
40. Quyidagi ma'lumotlar orasidan to'g'rilarni toping.
 1) 1996 yildagi ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekiston kasaba uyushmalarining 53 mingga yaqin boshlang'ich tashkilotlariga ixtiyoriy ravishda birlashgan 7,5 milliondan ziyod a'zolari bo'lgan.
 2) 1995-yil dekabrda O'zbekiston Prezidentining farmoni bilan Faxriylar Kengashi "Nuroni" jamg'armasiga aylantirildi.
 3) O'zbekistonda 1996-yilda ommaviy axborot vositalarini demokratiyalashtirish va qo'llab quvvatlash bilan shug'ullanuvchi ijtimoiy-siyosiy jamg'arma tashkil etildi.
 4) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998-yil 7-maydagi "O'zbekiston ijtimoiy taraqqiyotida televideniye va radioning rolini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoniga ko'ra, O'zbekiston Davlat televideniye va radio eshittirish qo'mitasi O'zbekiston teleradiokompaniyasiga aylantirildi.
 5) 2007-yilning oktabrida "O'zavtosanoat" va AQShning General Motors kompaniyasi o'rtasida "GM-O'zbekiston" qo'shma korxonasi tashkil etish to'g'risida bitim imzolandi, shartnomaga ko'ra, aksiyalarning 25% i GMga tegishli.
 A) 1, 2, 4 B) 1, 3, 4 C) 2, 3, 5 D) 1, 3, 5
41. Quyidagi qaysi shaxs Andijonda Dukchi Eshon qo'zg'oloni ko'tarilgan vaqtda Rossiya imperiyasi harbiy vaziri bo'lgan?
 A) *N.V.Korolkov* B) *G.K.Kerenskiy* C) *A.N.Kuropatkin*
 D) *Ye.S.Rvanishev*
42. 1947-yil 14-martda qabul qilingan "Trumen doktrinasi" qanday maqsadga mo'ljallanganligini aniqlang.
 A) *Yevropaning 16 davlatiga iqtisodiy yordam ko'rsatish*
 B) *Gretsiya va Turkiyaga yordam berish*
 C) *Germaniyani tiklash va moliyalashtirish*
 D) *urushda vayron bo'lgan Yevropa davlatlariga vayrongarchiliklarni tugatishga yordam ko'rsatish*
43. Qaysi Rim Papasi buyuk olim Galileo Galileyga nisbatan chiqarilgan inkvizitsiya sudi qarorini bekor qilgan?
 A) *Ioann Pavel III* B) *Piy IX* C) *Piy XII*
 D) *Ioann Pavel II*
44. Keyinchalik buyuk sarkarda bo'lib yetishgan Amir Temur dastlabki harbiy faoliyatini ...
 A) *Kesh dorug'aligidan boshlagan*
 B) *viloyat amirlariga xizmat qilishdan boshlagan*
 C) *Amir Husayin qo'shinida xizmat qilishdan boshlagan*
 D) *Tug'luq Temurga xizmat qilishdan boshlagan*
45. Kanada marokashliklar hukmronligiga qachon chek qo'yildi?
 A) 1076-yilda B) 1173-yilda C) 1087-yilda
 D) 1097-yilda
46. Ibrohim Bo'ritegin qaysi hududlarni o'z qo'l ostiga birlashtirgandan so'ng mustaqil siyosat yurita boshlagan?
 1) Xuttalon; 2) Vaxsh; 3) Chag'oniyo; 4) Movarounnahr; 5) Farg'ona; 6) Xorazm; 7) Xuroson; 8) Yettisuv; 9) Sharqiy Turkiston
 A) 1, 2, 3, 4, 5 B) 3, 5, 7, 8, 9 C) 2, 4, 6, 7, 8
 D) 1, 3, 5, 7, 9
47. 1899-yili Xitoyda "Ixtetuan" harakati qo'zg'olon tusini oldi. Ular Sin hukumatiga qanday talablar qo'ydilar?
 1) Yaponiyaga tovon to'lashni to'xtatish; 2) Gonkongni Xitoyga birlashtirish; 3) Tayvanni Xitoyga birlashtirish; 4) Respublika tuzumini o'rnatish; 5) Sin hokimiyatini ag'darish
 A) 4, 5 B) 1, 2 C) 1, 3 D) 3, 5
48. Reyn kafolat paktidan norozi bo'lgan sovet davlati quyidagi qaysi davlatlar bilan betaraflik to'g'risida shartnoma imzoladi?
 1) Germaniya; 2) Eron; 3) Turkiya; 4) Litva; 5) Mo'g'uliston; 6) Afg'oniston; 7) Finlandiya
 A) 1, 2, 5, 6 B) 2, 5, 6, 7 C) 1, 3, 4, 6 D) 2, 3, 6, 7
49. Qaysi javobda 1972-yilda tashkil etilgan V.R.Chkalov nomidagi Toshkent Aviatsiya ishlab chiqarish birlashmasiga birlashtirilgan zavodlar ko'rsatilgan?
 1) Toshkent aviatsiya zavodi; 2) Toshkent motor zavodi; 3) Andijon mexanika zavodi; 4) Farg'ona mexanika zavodi; 5) Foton zavodi; 6) Toshkent kislorod zavodi; 7) Toshkent elektroapparat zavodi
 A) 2, 3, 4, 7 B) 1, 3, 5, 6 C) 1, 3, 4, 6 D) 1, 2, 6, 7
50. Dehqon va chorvadorlarning eng qadimgi manzilgohlaridan biri bo'lmish Zamonbob o manzilgohi qayerdan topilgan?
 A) *Toshkent viloyatidan* B) *Buxoro viloyatidan*
 C) *Surxondaryo vohasidan* D) *Farg'ona vodiysidan*
51. 1889-yil tashkil topgan Avstriya sotsial-demokratik partiyasi dasturida qanday talablar bor edi?
 1) siyosiy erkinliklar joriy etish; 2) Germaniya bilan yaqinlashish; 3) parlamentni umumiy va teng ovoz berish yo'li bilan saylash to'g'risida qonun qabul qilish; 4) cherkovni davlatdan, maktabni cherkovdan ajratish; 5) antisemitizmni targ'ib qilish; 6) ish kunini qisqartirish.
 A) 3, 4, 5, 6 B) 2, 3, 5, 6 C) 1, 2, 3, 4 D) 1, 3, 4, 6

52. Faqat to'g'ri ma'lumotlar ko'rsatilgan javobni belgilang.
 1. Ikkinchi jahon urushi yillarida qand lavlagini qayta ishlash, shakar, qand ishlab chiqarish uchun Zirabuloq, Qo'qon va Yangiyo'l qand zavodlari qurildi.
 2. 1942-1943-yillarda paxta tayyorlash rejasi bajarilmay qoldi.
 3. O'zbekistonda ekib kelingan amerika paxta navlarini yangi navlar bilan almashtirish 1944-yilda tugallandi.
 4. 1945-yilda O'zR FA Prezidiumida aspirantura tashkil etildi.
 5. Ikkinchi jahon urushi yillaridagi qiyinchiliklar tufayli Samarqand kooperativ instituti bilan Toshkent moliya-iqtisodiyot instituti, Toshkent va Andijon tibbiyot institutlari birlashtirildi.
 6. Ikkinchi jahon urushi yillarida Toshkent teatr san'ati instituti va Marg'ilon o'qituvchilar institutlari ochildi.
 A) 2, 4, 5, 6 B) 1, 2, 5, 6 C) 1, 3, 4, 5 D) 1, 2, 3, 6
53. Platon Afina akademiyasiga asos solgan davrda tarixda sodir bo'lgan voqeani aniqlang.
 A) Xorazmning qadimgi shahri Jonbosqal'a vujudga kelgan.
 B) Xorazmiylar Ahamoniylar istibdodidan ozod bo'ldi.
 C) Avesto 21 ta kitobga jamlangan.
 D) Qang' qudratli davlat birlashmasiga aylandi.
54. Qaysi javobda taypinlar qo'zg'olonini bostirishda Sin hukumatiga yordam bergan davlatlar ko'rsatilgan?
 1) Rossiya; 2) Buyuk Britaniya; 3) Yaponiya; 4) Fransiya; 5) AQSh; 6) Germaniya.
 A) 1, 3, 6 B) 2, 3, 4 C) 1, 2, 4 D) 2, 4, 5
55. Suriya mustaqil davlat deb e'lon qilingan sanani aniqlang.
 A) 1925 yil 7 oktabr B) 1942 yil 27 iyul
 C) 1936 yil 1 sentabr D) 1941 yil 27 sentabr
56. Qaysi javobda Chingizxon 1211-1215-yillarda bosib olgan hududlar ko'rsatilgan?
 A) Yettisuv va Sharqiy Turkiston
 B) Shimoliy Xitoy yerlari
 C) Enasoy daryosi havzasi va Yettisuvning shimoliy qismi
 D) Sharqiy Turkiston va naymanlar davlati
57. Mustaqillikning dastlabki yillaridayoq O'zbekiston chet davlatlar bilan iqtisodiy aloqalarni yo'lga qo'ydi. Davlatimiz Buyuk Britaniyaning qaysi kompaniyasi bilan oltin biznes haqida bitim imzoladi?
 A) Nyumont Mayning B) Lonro C) Siemens
 D) Mitsui
58. Chor Rossiyasi hukmron doiralari Kavkaz, Sibir, O'rta Osiyo hududlarini mustamlakaga aylantirish harakatini olib borgan davrda bu hududlarda mustaqillik kurashi ham olib borilgan. Quyidagi shaxslardan kim 25 yil davomida qarshilik kurashiga boshchilik qilgan?
 A) Qurbonjon dodxo B) Kuchum C) Shomil
 D) Po'latxon
59. General I.V. Panfilovning diviziyasida Toshkent piyoda bilim yurti va O'rta Osiyo harbiy okrugining harbiy-siyosiy bilim yurtini tamomlagan zobitlardan necha nafari xizmat qilgan?
 A) 180 B) 200 C) 280 D) 170
60. Nechanchi yilda Markaziy Osiyo iqtisodiy hamjamiyati tashkil topdi?
 A) 1995-yil B) 1994-yil C) 1996-yil D) 1998-yil
61. Asosiy maqsadi o'lkada ma'muriy boshqaruvni mustahkamlash va yerdan foydalanish tartiblarini o'zgartirishdan iborat bo'lgan "Turkiston o'lkasini idora qilish to'g'risidagi Nizom" qaysi rus imperatori tomonidan tasdiqlangan?
 A) Nikolay II B) Aleksandr III C) Nikolay I
 D) Aleksandr II
62. Safaviylar sulolasi vakillaridan qaysi birining hukmronligi davrida yirik yer-mulk egalari mustaqilligi tugatilib, davlat o'z qudratining cho'qqisiga erishdi?
 A) Taxmasp B) Abbos I C) Ismoil I
 D) Sulton Husayn
63. Qanday maqsadda Boleslav qo'shinlari german imperatoriga qarshi kurash olib borgan?
 A) Germaniya Ittifoq shartnomasiga hiyonat qilgani uchun
 B) Reyn daryosi havzasida hukmronlik qilish uchun
 C) Polsha mustaqilligini saqlab qolish uchun
 D) Vizantiyani o'zaro taqsimlab olish uchun
64. Quyidagi qaysi davlat rahbarlari bir yilda davlat tepasiga kelgan?
 A) Italiya Bosh vaziri B. Mussolini va AQSh prezidenti U. Garding
 B) Argentina prezidenti M. Alveor va Rif Respublikasi prezidenti Abdul Karim
 C) Iroq qiroli Faysal al-Hoshimin va Kuba prezidenti Menokal
 D) Argentina prezidenti I. Irigoyen va Kuba prezidenti Menokal
65. 1920-yilning aprelida Ispaniya hukumati tomonidan joriy etilgan tadbirlarni aniqlang.
 1) 8 soatlik ish kuni; 2) kasaba uyushmalari tuzishga ruxsat berish; 3) ish haqini oshirish; 4) bolalar mehnati taqiqlash; 5) xotin-qizlar uchun 7 soatlik ish kuni; 6) qarilik va nogironlik sug'urtalari; 7) yakshanbani dam olish kuni deb belgilash
 A) 1, 3, 4, 6 B) 1, 2, 5, 6 C) 2, 4, 6, 7 D) 2, 5, 6, 7
66. 1601-yilda Jonibek Sultonning ikkinchi o'g'li, ... hokimi Boqi Muhammad Buxoro taxtiga o'tqazildi.
 A) Buxoro B) Balx C) Samarqand D) Toshkent
67. Buyuk ajdodlarimiz haqidagi "Alisher Navoiy" tarixiy-biografik filmi kim tomonidan yaratilgan?
 A) K. Yormatov B) N. G'aniev C) A. Hamroev
 D) L. Fayziev
68. 1918-1920-yillardagi fuqarolar urushi davrida Rossiya janubida o'z diktaturasini o'rnatgan oq gvardiyachilar harakati rahbarini aniqlang.
 A) A. V. Kolchak B) A. I. Denikin C) E. K. Miller
 D) N. N. Yudenich
69. Qaysi javobda bir vaqtda sodir bo'lgan voqealar ko'rsatilgan?
 1. Sopollitepa manzilgohi vujudga keldi;
 2. Amon-Ra fir'avnlarining bosh ilohi va homiysi hisoblana boshladi;
 3. Qadimgi Hindistonda ilm-fan rivojlandi;
 4. Qadimgi Baqtriya davlati tashkil topdi;
 5. Attika viloyatida Akropol vujudga keldi
 A) 2, 3, 4 B) 3, 4, 5 C) 1, 3, 5 D) 1, 2, 5
70. Mo'g'ullar Koryo qirolligini bosib olgan yilda O'zbekiston tarixida bo'lib o'tgan voqeani aniqlang.
 A) Mo'g'ullar bosqini natijasida Xorazmshohlar hukmronligi barham topdi.
 B) Mahmud Torobiy qo'zg'oloni bo'lib o'tdi.
 C) Xulakiylar davlati tashkil topdi.
 D) Ma'sudbek tomonidan pul islohoti amalga oshirildi.

71. Oltin O'rda ulus nomini olgan to'rtta yirik viloyatga bo'linib ketgan davrda yuz bergan voqeani aniqlang.
 A) Movarounnahrda Sarbadorlar harakati vujudga keldi.
 B) Venetsiyalik sayyoh Marko Polo Uzoq Sharq va Xitoyga sayohat qildi.
 C) Boyazid Yildirim va Amir Temur o'rtasida kuchli to'qnashuv bo'ldi.
 D) Angliya taxtiga Genrix VII Tyudor keldi.
72. Buxoro amirligida suyurg'ol egasi davlat xazinasiga xiroj to'lash bilan birga yana qanday majburiyatni bajarishi lozim edi?
 A) ushbu yerlarda yashovchi aholini yangi kanallar qazish ishlariga safarbar etishi
 B) yiliga bir marotaba amir saroyida bazm uyushtirishi
 C) amirlikdagi qurilishlar uchun o'z mablag'idan ulush ajratishi va mardikorlar yuborishi
 D) oliy hukmdorning chaqirig'iga ko'ra o'z qo'shini bilan harbiy yurishlarda ishtirok etishi

INGLIZ TILI

73. Choose the best answer.
 He looks angry! ... he ... arguing?
 A) Was/ - B) Has/ been C) Did/ - D) Did/ was
74. Choose the answer which correctly completes the sentence.
 "Where can I buy mobile phone in this city?" - she asked me.
 She asked me where ... mobile phone in this city.
 A) she could buy B) could she buy C) can I buy
 D) I can buy
75. Choose the correct answer.
 Because they ... so badly, a number of spectators ... to leave the stadium.
 A) behaved/had asked B) are behaving/has been asked
 C) were behaving/were asked D) had behaved/ask
76. Choose the best answer.
 She walked the stairs ... she ...
 A) as if/ is flying B) like/ is flying C) as/ was flying
 D) as if/ was flying
77. Choose the best answer.
 Tom said that he ... in France for two years before moving to England.
 A) had lived B) had been lived C) has been living
 D) lived
78. Choose the best answer.
 His suggestion seemed ... improbable to us.
 A) high B) highest C) higher D) highly
79. Choose the best answer.
 Police say that they have given the protesters two days ... the area or they will arrest them.
 A) to be left B) have left C) leaving D) to leave
80. Choose the best answer.
 This time next week, students ... the chemistry exam.
 A) will have been finishing B) have been finishing
 C) will have finished D) have finished
81. Choose the best answer.
 My telephone switched off. The telephone ...
 A) needs to be charging B) needs to charging
 C) needs charging D) needs charged
82. Choose the best answer.
 She is far ... than she used to be.
 A) a bit self-confident B) more self-confident
 C) most self-confident D) much self-confident

83. Complete the sentence with a suitable word or phrase.
 Jim managed to climb into the house ... a ladder he found.
 A) subject to B) with a view to C) but for
 D) by means of
84. Choose the best answer.
 Hardly ... the office when he realized that he had forgotten his wallet.
 A) entered B) had entered C) he had entered
 D) had he entered
85. Choose the best answer.
 My aunt never misses her favourite daytime soap ...
 A) opera B) play C) musical D) entertainment
86. Choose the answer which correctly completes the sentence.
 Bobur never puts ... sugar in his coffee.
 A) anything B) no C) some D) any
87. Choose the answer which correctly completes the sentence.
 The farmer was really very upset and warned us to get ... his land.
 A) of B) off C) over D) from
88. Choose the answer which correctly completes the sentence.
 Jellyfish are probably ... predators on Earth.
 A) most numerous B) most numerous of
 C) the most numerous D) many numerous
89. Choose the correct answer.
 By analyzing historical and current data, meteorologists can predict the number of hurricanes that ... in the Caribbean in any given year.
 A) will have appeared B) will appear C) would appear
 D) are appearing
90. Choose the answer which correctly completes the sentence.
 It was in the park that Bob had his money Be careful going there!
 A) stealing B) to steal C) steal D) stolen
91. Choose the answer which correctly completes the sentence.
 A chameleon is a tree lizard that can change colours ... to conceal itself in the vegetation.
 A) in order B) such C) so D) that
92. Choose the answer which correctly completes the sentence.
 "What make of car is that?" - Tim asked.
 Tim enquired what make of car ...
 A) it was. B) had it been. C) it is. D) was it.

Read the text. Then choose the correct answer for each question below (93-96).

A fire extinguisher, or extinguisher, is an active fire protection device used to extinguish or control small fires, often in emergency situations. A fire extinguisher, even a small one, located near the kitchen is a wise investment. But be sure that the extinguisher is rated to put out kitchen fires. What the extinguisher is designed to do is stated on the outside. Rather than bother trying to determine which one is best for you, just get an extinguisher that is rated to control all three primary types of fires: (1) ordinary combustibles such as paper and wood; (2) flammable liquids, such as fat, gasoline and grease; and (3) electric fires. Read the directions carefully. Teach everyone in the family how to **operate** the extinguisher, and do not buy one that is too heavy for a child of nine or ten to lift.

93. The passage says that...

- A) one can erroneously consider the larger the extinguisher the more effective.
- B) extinguishers don't vary according to their ability to control different types of fires.
- C) only an expensive fire extinguisher is advisable to keep safe from fire effectively.
- D) a universal extinguisher is the best type to keep at home.

94. The author makes us sure not to purchase the extinguisher...

- A) that is capable to put out ordinary combustible burning.
- B) that can be generally available for everyone.
- C) that is intended to blow out all existing fires.
- D) that is too massive for some family members.

95. According to the information in the passage, when a fire extinguisher has been installed, ...

- A) one should provide that not only adults but all family members could use it.
- B) one should remember to turn off the light.
- C) one should be extremely careful to put fires.
- D) one should keep in mind not to operate it alone.

96. What does the word "operate" in the passage mean?

- A) perform an operation
- B) produce
- C) function
- D) move

Read the text. Then choose the correct answer for each question below (97-100).

Having a big party (called a "prom") in the junior and senior years of high school is a great American tradition. It's a special night which people plan carefully, and remember for the rest of their lives.

The high school prom season usually starts in April and continues through May. Planning starts as early as February, however, when the magazines and stores begin to show prom fashions. There is a lot of organization to be done. Proms are held in many different places. Some schools still hold their proms in school gymnasiums but this is considered a bit old-fashioned now. Most high schools today have their Junior and Senior proms at a hotel or country club. Girls spend a long time deciding what kind of dress to wear and fashions change from year to year, and from school to school. Fashions range from cocktail dresses to full ball gowns and can be extremely **glamorous**. Sometimes girls have their dresses specially made by dressmakers. Boys generally wear tuxedos. Each year there are different styles, but as the proms are quite traditional occasions, classic clothes are usually a good choice.

97. It can be inferred from the passage that *prom night* is...

- A) a traditional fashion carnival dedicated to high school students.
- B) an American national festival which is held in spring months.
- C) a party especially important to high school students in the U.S.
- D) an occasion celebrated by students at the end of each month.

98. Which of the following is not mentioned in the passage?

- A) Magazines and stores are not indifferent to this great tradition.
- B) There exist a great number of organizations to arrange prom parties.
- C) Now and then girls have their evening gown sewn for the occasion.
- D) Presently, the celebrations are not being held in the sports halls of schools.

99. The word 'glamorous' in the passage is closest in meaning to...

- A) colossal
- B) colorful
- C) dreadful
- D) fascinating

100. Which of the following is the best title for the passage?

- A) U.S. Students and Prom Clubs
- B) Fashion for Juniors and Seniors
- C) High School Festivals
- D) High School Proms

Read the text. Then choose the correct answer for each question below (101-104).

Theodore Dreiser's first novel was *Sister Carrie* (1900), the story of a young working girl. The publishers did not approve of the book because it did not follow established morals - 'bad' characters were not punished and vice was rewarded. As a result, Dreiser had to make a lot of revisions to the story in order to get it published. The book was not given much publicity and few copies were sold. However, the novel was republished in 1907 and it became one of the most famous urban novels in literary history. Dreiser's original unrevised version of *Sister Carrie* was not published until 1981. Dreiser was very depressed by the poor commercial success of his book and the attempts to censor it. He worked as an editor for several women's magazines, and ten years passed before the publication of his next novel, *Jennie Gerhardt*. Like *Sister Carrie*, it was attacked for its realism.

101. The author states that *Sister Carrie* was disapproved, for the reason that...

- A) the story was not interesting enough to attract readers.
- B) the publishers did not fancy supporting the young writer.
- C) social background of its characters was not portrayed fully.
- D) it was contrary to the existing principles of the time.

102. The first unchanged form of *Sister Carrie* came out in...

- A) 1900
- B) 1981
- C) 1917
- D) 1907

103. All of the following statements are TRUE, EXCEPT:

- A) Loads of changes had been done before the publication of *Sister Carrie*.
- B) *Sister Carrie* is a well-known story in which city life is depicted.
- C) Dreiser was down in the dumps seeing that his first novel was not best-selling.
- D) As distinct from *Sister Carrie*, *Jennie Gerhardt* was not censored.

104. It is clear from the passage that besides writing novels Dreiser...

- A) *was an editor for some magazines.*
- B) *was engaged in commercial activities.*
- C) *was a man who fought against realism.*
- D) *was busy censoring other writers' works.*

Read the text. Then choose the correct answer for each question below (105-108).

Water truly is vital to health and to life itself. It makes up on average 60-70% of one's body weight (more in younger individuals, less in older adults). By simply drinking 8-10 glasses a day, one can satisfy the body's needs. Water plays many roles in the day-to-day functioning of the human body. Remember, though, you cannot drink only when you are thirsty. Short changing your body of its water supply will reduce the effectiveness and ability of this wonderful nutrient to play its many roles. A recent study found out that 71% of preschool children do not drink any **plain** water during the course of a day. Some adolescents (and adults too) drink as many as six cans of soft drinks (full of caffeine and sugar) a day. While some would argue that this is indeed fluid, the caffeine acts as a diuretic, which will add to the exhaustion of bodily water. The difference between water and soft drinks is clear. If you drink 12 ounces of plain water, eight ounces of it will be absorbed by your body within 15 minutes. Yet, drink 12 ounces of a soft drink, and less than 1 ounce is absorbed in the same amount of time. Let frequent water drinking become a habit in your life!

105. One can understand from the passage that water is necessary to health because...

- A) *human's body consists of approximately 60-70 percent of water.*
- B) *millions of people live with severe shortages of it every day of their lives.*
- C) *we need it whenever we are thirsty.*
- D) *the world's water supply is limited.*

106. According to the passage, insufficient water intake...

- A) *will lead to the increase of bodily water*
- B) *lessens its effectiveness for the body*
- C) *can be restored by soft drinks*
- D) *leads to a malfunction in the body*

107. The word "plain" in the text is closest in meaning to...

- A) *extra*
- B) *mineral*
- C) *soft*
- D) *pure*

108. The main idea in the passage is that...

- A) *people should drink as much water as possible if they want to be healthier.*
- B) *preschool children as well as most adults are fond of soft drinks.*
- C) *plain water is easily absorbed by the body.*
- D) *soft drink intake should be reduced up to 60-70% of one's body weight.*

ONA TILI VA ADABIYOTI

1. Odamlar g'urur, foydasiz manmansirash tufayli juda ko'p kulfatlarga yo'liqishgan, shuning uchun islom tafakkurining buyuk natijasi bo'lgan tasavvufda inson kibrdan kechmay turib o'zligini anglamaydi, Oллоhni tanimaydi degan aqida bor edi. Ushbu gapdagi so'z yasovchi qo'shimchalar haqida berilgan hukmlardan nechitasi to'g'ri?

1) otdan sifat yasashga xizmat qilgan; 2) sifatdan fe'l yasashga xizmat qilgan; 3) olmoshdan fe'l yasashga xizmat qilgan; 4) olmoshdan ot yasashga xizmat qilgan; 5) otdan fe'l yasashga xizmat qilgan.

A) 3 tasi B) 1 tasi C) 4 tasi D) 2 tasi

2. 1. Kimki o'rganishni or bildi, Har qadamda o'zini xor bildi. 2. Kimki birovga choh qazisa, unga o'zi tushadi. 3. Kimki o'zining ma'naviy quvvatidan foydalanmasa, bu quvvat tark etadi. 4. Agar piyola bexosdan sinsa, qayg'urmang, bu – baxtdan nishona. 5. Uni tanib olish qiyin edi, chunki yelkalari kengaygan edi, katta ko'zlari dumaloq shakl olgan edi.

Ushbu gaplar haqidagi to'g'ri ma'lumotlarni aniqlang.

1) 1-gap to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap; 2) 2-gap ega ergash gapli qo'shma gap; 3) 3-gap ega ergash gapli qo'shma gap; 4) 4-gap murakkab qo'shma gap; 5) 5-gap bir necha ergash gapli murakkab qo'shma gap

A) 2, 3, 4 B) 2, 4, 5 C) 2, 3, 4, 5 D) 1, 2, 4, 5

3. Ostida dulduli, belda zulfiqor,
Jilovda Bobo Qambar jilovdor,
G'amingda otlandi Shohimardon pirlar...
"Alpomish" dostonida ushbu so'zlar kim tomonidan kimga aytilgan?

A) Rasul Payg'ambar tomonidan Alpomishga
B) Rasul Payg'ambar tomonidan Qorajonga
C) Rajabxo'ja eshon tomonidan Alpomishga
D) Rasul Payg'ambar tomonidan Boybo'riga

4. Qaysi so'zlarda u unlisi noto'g'ri qo'llangan?
1) unutmog; 2) unumli; 3) unub-o'smog; 4) umumiylik;
5) umum; 6) umurguzaron

A) 3, 4, 5 B) 1, 2, 4, 6 C) 3, 6 D) 2, 3, 5

5. Tobe qismidagi barcha morfemalar omonimlik xususiyatiga ega so'z birikmalarini belgilang.

1) shartlarini bajarmoq; 2) kechki uchrashuv; 3) yoza boshlamoq; 4) tuzsiz ovqat; 5) qo'ymijoz kishi

A) 1, 2, 3, 4 B) 2, 4, 5 C) 2, 3, 4 D) 1, 2, 5

6. O'zakdosh so'zlarni ishlatib hosil qilingan san'at Sharq mumtoz badiiyati ilmda qanday ataladi?

A) tanosib B) ishtiyoq C) iyhom D) tajnis

7. "Ahmoq kishining tili o'ziga dushman, ko'p kishilarning qoni tili tufayli to'kildi. Ko'p so'zlaganlar ichida o'kingan ko'pdir, tilni tiyganlar orasida o'kingan bormi?"

Tilni tiyish haqidagi mazkur o'git muallifini aniqlang.

A) Abay B) Yusuf Xos Hojib C) Ahmad Yugnakiy
D) Mahmud Koshg'ariy

8. "Ajab zamona", "Kajdor zamona", "Dar mazammami zamona" satiralari muallifi kim?

A) Maxmur B) Furqat C) Zavqiy D) Muqimiy

9. Qaysi gapda paronimlarni qo'llash bilan bog'liq uslubiy xato mavjud?

A) U o'zining og'asiga va uning fikrlariga chuqur extirom bilan qarar edi.

B) Navoiy uning ichki tuzilishi, tashqi ko'rinishi, naqshlari, bo'yloqlariga qadar tushintirdi.

C) Posbon uxlagach, Mirzo Ulug'bekni Ko'ksaroy tagidagi lahmndan olib chiqmoqchi edi.

D) Biz shunday kutubxona bino qilaylik-ki, butun el qoshida manzur va mo'tabar bo'lsin.

10. Qaysi gaplarda ravish turkumiga mansub so'z ikki o'rinda qo'llangan?

1. U avvallari ishga ketayotib birrov kirib ukasidan hol so'rar edi. 2. Yo'q, bu besh-olti yil ilgari yarimta tana emas, katta qalb, katta hayot egasi go'zal hayot qo'shig'ini kuylardi. 3. Keyin u yoqqa o'tamiz, – deb o'ngdagi oynavand uyga ishora qildi. 4. Shu payt uydin – yotog'imizdan bolalar ham birin-ketin ko'zlarini uqalab, har yoqqa qarab tushib kela boshladi. 5. Bular piyoda asta-sekin O'rdaga bordilar.

A) 1, 3, 4 B) 1, 3, 4, 5 C) 1, 3, 5 D) 1, 2, 3, 4, 5

11. Kimki menga zulm emas, mehr ko'rsata olsa, unga ham mehrim baland bo'ladi, u insonlar orasidagi eng yaqin do'stim bo'ladi.

Ushbu gap murakkab qo'shma gaplarning qaysi turiga mansub?

A) qismlari uyushgan murakkab qo'shma gap

B) bir necha bosh gapli murakkab qo'shma gap

C) aralash murakkab qo'shma gap

D) bir necha ergash gapli murakkab qo'shma gap

12. Millatning bu asl farzandlari o'z orzulari haqida emas, xalq hayoti, uning ijtimoiy ahvoli yaxshilanishi uchun qayg'urdilar, ularga juda ko'p zug'um qilsalar ham, o'z dunyoqarashlarini o'zgartirmadilar, hatto bu yo'lda o'zlarini qurbon qildilar.

Ushbu gapda ishtirok etgan yasama so'zlar sonini toping.

A) 3 ta B) 6 ta C) 5 ta D) 4 ta

13. Qaysi javobda Al-Buxoriy asarlarining nomi to'g'ri ko'rsatilgan?

1. "Al jomi' as-sahih"; 2. "Al-adab al-mufrad"; 3. "Kanz ul-haqoyiq"; 4. "Nafohat-ul uns"

A) 3, 4 B) 2, 4 C) 1, 2 D) 1, 3

14. Qaysi javobda Nodir Dumbadzening qissalari to'g'ri ko'rsatilgan?

1) "Qishloq bolalari"; 2) "Oq bayroqlar"; 3) "Quyosh kechasi"; 4) "Men, buvim, Iliko va Illarion"; 5) "Quyoshni ko'ryapman"; 6) "Abadiyat qonuni"; 7) "Kukaracha"

A) 1, 4, 7 B) 2, 3, 4, 6, 7 C) 2, 4, 7 D) 4, 7

15. Birinchi bor bahorni tanigan, ilk bor varrak uchirgan, birinchi marta hayitlik olgan joying, birinchi o'qituvchi, birinchi muhabbatini tanitgan makon – Vatandir! Ushbu gapda egalar nechta so'z birikmasida hokim qism vazifasini bajargan?

A) 3 ta B) 5 ta C) 4 ta D) 2 ta

16. Quyidagi gapda nechta tobe bog'lanish mavjud?

Ishlarni qanday taqsimlash faqat sizning didingizga, aqlingizga bo'g'liq.

A) 8 ta B) 5 ta C) 7 ta D) 6 ta

17. Dunyo odam kabi yasanib, jilva qilib mardona so'fiy oldiga kelishi, lekin Haq oshig'ini o'ziga qarata olmogach, ayyor, makkor dushman qiyofasida gavdalanishi Mashrabning qaysi g'azalida tasvirlangan?

A) "Na qilay?" radifli g'azalida

B) "O'ttun" radifli g'azalida C) "O'rtar" radifli g'azalida

D) "Chidayolmas" radifli g'azalida

18. Quyida berilgan nechta so'zga shakl yasovchi qo'shimcha qo'shilganda asosda tovush o'zgarishi bo'lishi mumkin?
ishtirok, ravnaq, ulug', qulun, qayir, qo'yin
A) 4 ta B) 3 ta C) 2 ta D) 6 ta
19. Qaysi shoir o'z she'rlaridan birida yotish uchun chora izlab charxpalakni o'ylab topganlari, shamol tegirmonini, samo laynerini ijod qilganlari uchun "*Rahmat deyman yorug' dunyoda Dangasalar borligi uchun*" deb yozgan?
A) Erkin Vohidov B) Omon Matjon C) Abdulla Oripov D) Muhammad Yusuf
20. Yorga "sarvi ozodim", "sarvi nozim", "parizodim", "tab'i noshodim" undalmalari bilan Nodira qaysi g'azalida murojaat qiladi?
A) "Qilmag'il zinhor izhor ehtiyoj..." g'azalida
B) "Doda keldim..." g'azalida
C) "Vasl uyin obod qildim..." g'azalida
D) "Kel, dahrni imtihon etib ket..." g'azalida
21. Imloviy jihatdan noto'g'ri yozilgan so'zlarni aniqlang.
1) sozovor; 2) talofat; 3) rahmat; 4) xoxlamog; 5) taqdim; 6) tag'dir
A) 3, 4 B) 1, 2 C) 1, 2, 4, 6 D) 1, 2, 3, 6
22. Asarning tub mohiyatida markazlashgan davlatni barpo qilish, mustahkamlash, turli xon va beklarni birlikka chaqirish, adolatli va oqilona siyosatni amalga oshirish, umrning o'tkinchiligi, ma'naviyat, yashash bilan bog'liq g'oyalar badiiy tarzda bir qomusiy dastur sifatida ilgari surilgan. Ushbu gapda ishtirok etgan ko'makchilar haqida berilgan noto'g'ri hukmni toping.
A) gapda faqat sof ko'makchi ishtirok etgan
B) sof ko'makchi uyushiq to'ldiruvchilarni shakllantirishga xizmat qilgan
C) ko'makchilar bilan shakllangan gap bo'laklari aniqlovchi va kesimga tobelangan
D) gapda sof va vazifadosh ko'makchi ishtirok etgan
23. Quyida berilgan matnda nutqdan tashqari shaxs ma'nosini bildiruvchi kishilik olmoshlari qanday bo'lak vazifasini bajargan?
Al-Xorazmiy 873-yilda tavallud topgan. U algebra va geometriya, geografiya fanlarining rivojiga munosib hissa qo'shgan. Al-Xorazmiyning "Al-jabr" kitobi uch qismdan iborat. Unda oltmishdan ortiq murakkab masalalarni tenglama yordamida yechish yo'llari ko'rsatilgan. U bu kitobi orqali bizga juda qimmatli ma'lumotlar qoldirgan va ilm-fan taraqqiyotiga beqiyos hissa qo'shgan.
A) ega va to'ldiruvchi B) ega
C) ega, to'ldiruvchi, aniqlovchi D) to'ldiruvchi
24. Qaysi gapdagi yasama sifat tarkibidagi sifat yasovchi qo'shimcha ot yasovchi qo'shimcha bilan shakldoshlik hosil qilmaydi?
A) Bog'dan yumshoq, namxush xazon hidi ko'tarilib, uning xayollarini to'lin oy olib ketardi.
B) Jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish uchun xalq mafkuraviy jihatdan qurollangan bo'lishi kerak.
C) O'yakor gullari bilinmaydigan darajada o'chgan, eski eshikka kiramiz.
D) Bu o'lkada iqlim iliq, suv mo'l, yer unumdor, quyosh nuri ko'p.
25. Quyida berilgan gapda yasama so'zlar qaysi gap bo'laklari vazifasini bajargan?
Istiqlol bergan eng buyuk ne'mat o'zlikni anglash, milliy g'urur va qadriyatlarni tiklash bo'ldi.
A) to'ldiruvchi, hol, kesim B) to'ldiruvchi, kesim
C) to'ldiruvchi, hol D) to'ldiruvchi, ega
26. Shaxs oti yasovchi qo'shimchalar qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?
A) -gar, -chi, -k, -don B) -xon, -chi, -dosh
C) -lik, -inch, -ch, -dosh D) -loq, -choq, -chi, -dosh
27. Roman-epopeyalar berilgan qatorni toping
1) M.Sholoxov "Tinch Don"; 2) L.Tolstoy "Urush va tinchlik"; 3) Ch.Aytmatov "Oq kema"; 4) Nurpeisov "Qon va ter"; 5) Muhammad Ali "Ulug' saltanat"; 6) M.Avezov "Abay"
A) 1, 2, 4, 6 B) 1, 2, 4, 5, 6 C) 1, 2, 3, 4 D) 2, 3, 4, 6
28. *Yazshi kishi ko'rmagay yomonlik hargiz...*
Ushbu misrada unlilar va hosil bo'lish usuliga ko'ra bir umumiy guruhga mansub bo'lgan undoshlardangina tarkib topgan so'z necha o'rinda qatnashgan?
A) 2 B) 1 C) 4 D) 3
29. *Bu - men tug'ilgan tuproq. Ha, men tug'ilgan tuproq, Tog'lar, ko'm-ko'k adirlar, daryolar, cheksiz qumloq. Bo'ronlar qamchilashar, yomg'irlar tomchilashar, Qishda qalin qordan oq, kuzda-chi, pastadan oq.* (Mirtemir)
Ushbu she'riy parchada aniqlovchi necha o'rinda qo'llangan?
A) 6 B) 4 C) 5 D) 3
30. Quyida berilganlardan o'z omonimi bilan o'timli yoki o'timsizligiga ko'ra farqlanmaydigan fe'l berilgan javobni aniqlang.
A) yoqmoq B) chopmoq C) tuymoq D) bo'lmoq
31. Berilgan qaysi so'zlar to'rtta ma'noli qismga ajraladi?
1) go'zallashtirmoq; 2) yonboshlab; 3) sanog'ini; 4) surishtirmoq; 5) ta'mirlatmoq
A) 1, 2, 3, 4, 5 B) 1, 2, 4, 5 C) 1, 2, 5 D) 1, 3, 4
32. *Osmonning chekkasi sariq - kir uvadaga o'zshaydi. Bu kir shu'la qo'yida past-baland uylar, shamolda egilayotgan daraxtlar qop-qora ko'rinadi. Pishqirayotgan shamol har xuruj qilganida Unsinni tentiratar, talay joyga surib tashlar edi.*
Berilgan parchada nisbat qo'shimchasini olgan fe'llar necha o'rinda qo'llangan?
A) 4 B) 2 C) 3 D) 5
33. So'z doriga o'xshaydi // ortiqchasi zarar keltiradi?
Ushbu gapda // belgisi o'rniga qaysi tinish belgisi qo'yiladi?
A) nuqtali vergul B) vergul C) ikki nuqta D) tire
34. **Usmon Nosir nihoyatda ziyarak, idrokli, keng mushohadali, o'ta qiziquvchan, uquvli, bilimga chanqoq, mehnatkash edi va shu fazilatlar bilan ajralib turar edi.**
Ushbu gap haqidagi to'g'ri fikrni aniqlang.
A) ushbu gapdagi kesimlarning barchasi yasama so'z bilan ifodalangan
B) ushbu gapda murakkab ot kesim uyushgan
C) ushbu gapdagi barcha so'zlar kesimga bevosita bog'langan
D) ushbu gapda qo'shma fe'l bilan ifodalangan kesim mavjud
35. Oybekning "Navoiy" romanida Alisher Navoiy Husayn Boyqaroga kimni vazir sifatida tavsiya etadi?
A) Nizomulmulkni B) Darveshalini C) Xo'ja Afzalni D) Mavlono Fazliddinni
36. Cho'lponning "Kecha va kunduz" asarida "Bolasining yoniga nima uchun otasini jo'natmaydi bu ahmoq o'rus? Adolat bormi kofirda?!" degan gaplarni kim aytadi?
A) eshon B) tilmoch C) muridlar D) domla

37. Quyidagi voqealar yillar bo'yicha mos ravishda joylashtirilgan javobni aniqlang.
1) Irrigatsiya va sovxozlar qurilishi bo'yicha O'rta Osiyo boshqarmasi (Glavsredazsovxostroy) tuzilishi; 2) "Paxta yetishtirishni ko'paytirish uchun O'zbekiston SSR va Qozog'iston SSR dagi Mirzacho'l qo'riq yerlarini sug'orish to'g'risida"gi qarori qabul qilinishi; 3) "O'zbekiston SSR, Qozog'iston SSR va Tojikiston SSR dagi Mirzacho'lni sug'orish va o'zlashtirish ishlarini yanada kengaytirish va jadallashtirish to'g'risida"gi qaror qabul qilinishi;
a) 1956-yil; b) 1963-yil; c) 1958-yil
A) 1-b; 2-a; 3-c B) 1-a; 2-b; 3-c C) 1-c; 2-b; 3-a
D) 1-a; 2-c; 3-b
38. XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Avstro-Vengriya sanoatini o'z kapitallari bilan to'ldirgan davlatni aniqlang.
A) Angliya, AQSh, Germaniya
B) Germaniya, Rossiya, Angliya
C) Germaniya, Italiya, Fransiya
D) Belgiya, Fransiya, Germaniya
39. O'zbekistonda nechanchi yilda Alisher Navoiy nomidagi Davlat mukofoti ta'sis etilgan?
A) 1993-yil B) 1995-yil C) 1997-yil D) 1991-yil
40. Buyuk fransuz burjua inqilobi davrida qirol huquqlarini cheklash haqida qabul qilingan hujjatni toping.
A) "Inson va fuqaro huquqlari Deklaratsiyasi"
B) "Huquqlar deklaratsiyasi"
C) "Huquqlar to'g'risida bill"
D) "Imtiyozlarni tugatish haqida dekret"
41. Quyidagi voqealar to'g'ri xronologik tartibda joylashtirilgan javobni toping.
1) G'arbiy Rim imperiyasining qulashi;
2) Muqaddas Rim imperiyasining tashkil topishi;
3) Verden bo'linishi;
4) Franklar davlatining tashkil topishi
A) 1, 4, 3, 2 B) 3, 2, 1, 4 C) 2, 3, 4, 1 D) 1, 3, 2, 4
42. Qaysi inshootga quyidagi ta'rif keltirilgan?
"Ustunlari bilan bino oldiga chiqib turgan peshayvon unga alohida ko'rk bag'ishlagan. Yorug'lik tushishiga qarab u o'z rangini oltin rangdan havorang yoki kulranggacha o'zgartirib, tuslanib turgan."
A) Rimdagi Troyan ustuni
B) Hindistondagi Toj Mahal maqbarasi
C) Buxorodagi Ismoil Somoniy maqbarasi
D) Yunonistondagi Parfenon ibodatxonasi
43. Amir Temur qo'shinlari tuzilishini esga oling. Quyidagi qaysi atama qo'shinning har bir qanoti yon tomonidagi qo'riqchi askariy qo'shilmani anglatgan?
A) izofa B) yasovul C) qanbul D) manglay-avangard
44. Yaponlar uchun Koreya ochiq mamlakat deb e'lon qilingan yilda...
A) Rossiya tomonidan Buxoro amirligi bosib olindi
B) Buyuk Britaniya o'z qirolichasi Viktoriyani Hindiston imperatori deb e'lon qildi
C) Tunisda Fransiya hukmronligi o'rnatildi
D) Xitoy Markaziy Vetnam ustidan rasmiy hukmronligidan voz kechdi
45. Qaysi javobda Vashington konferensiyalar tizimi o'tkazilgan davr ko'rsatilgan?
A) 1919 yilning 27 noyabridan 1920 yilning 4 iyuniga qadar
B) 1919 yilning 28 iyunidan 1919 yilning 10 sentabriga qadar
C) 1921 yilning 12 noyabridan 1922 yilning 6 fevraligacha
D) 1920 yilning 4 iyunidan 1920 yilning 10 avgustiga qadar
46. Qaysi javobda qishloq xo'jaligida kapitalizm taraqqiyotining "amerikacha yo'li"ga to'g'ri ta'rif berilgan?
A) sug'oriladigan ekin maydonlarini kamaytirish, sug'orilmaydigan erlarni modernizatsiya qilish
B) yirik yer egaligini tugatish hisobiga xususiy xo'jaliklarini ko'paytirish
C) ekin maydonni kengaytirish hisobiga mahsulotni ko'paytirish
D) qishloq xo'jaligiga davlat aralashuvini kuchaytirish
47. Abdullaxon II Muhammad Islomning ko'magida Buxoro taxtini amalda egallagan yilda sodir bo'lgan voqeani aniqlang.
A) Ivan Grozniy tomonidan Moskva savdo kompaniyasi vakili Antoniy Jenkinson Buxoro xonligiga jo'natildi.
B) Rossiya podsholigi taxtini amalda Boris Godunov boshqarishni boshladi.
C) Rossiya podshosi tomonidan Yormuhammadxon hukmronligiga chek qo'yildi.
D) Ivan Grozniy tomonidan Qozon xonligi egallandi.
48. Quyidagi qaysi davlat bilan O'zbekiston 2004-yil iyunda strategik sherikchilik to'g'risida bitim imzoladi?
A) Yaponiya B) Hindiston C) Rossiya D) Xitoy
49. Qaysi javobda quyidagi Sharqiy Yevropa davlatlari 2000-yildagi yalpi ichki mahsulotning aholi jon boshiga hisoblangan ko'rsatkichlari asosida to'g'ri ketma-ketlikda (miqdori ko'pidan oziga qarab) joylashtirilgan?
1) Bolgariya; 2) Vengriya; 3) Polsha
A) 2, 3, 1 B) 3, 2, 1 C) 1, 2, 3 D) 1, 3, 2
50. Nechanchi yilda va kim boshchiligidagi xoniylar So'g'dga bostirib kirganlar?
A) 351-yil, Xion B) 353-yil, Grumbat
C) 353-yil, Sumbat D) 355-yil, Malxut
51. Quyidagi qaysi ma'lumotlarda tarixiy xatolikka yo'l qo'yilmagan?
1. 1920-yil 17-sentabrda Turkiston ASSR hukumati o'lkada 8 yoshdan 40 yoshgacha bo'lgan kishilarni o'qitish va savodxon qilish to'g'risida dekret qabul qildi. 2. VKP(b) MQ O'rta Osiyo byurosi o'qituvchilar safini tozalash to'g'risidagi qarori 1933-yil 27-martda qabul qilingan edi. 3. VKP(b) MQ 1925-yil 18-iyunda o'zbek adabiyoti uchun qo'llanma hisoblangan "Partiyaning adabiyot sohasidagi siyosati to'g'risida" nomli qaror qabul qildi. 4. XX asrning 20-30-yillarida hukmron kommunistik partiyaning madaniy qurilishi siyosati asosan "shaklan sotsialistik, mazmunan milliy madaniyat"ni shakllantirishga qaratildi. 5. O'lkaning bo'lg'usi sovet kadrlarini "markscha-lenincha" ta'limot negizlarini qunt bilan o'qitishda 1920-yilda ochilgan Turkiston kommunistik universiteti alohida rol o'ynadi. 6. XX asr 20-30-yillarida yuqori malakali pedagog kadrlarlarga talab muttasil oshib borganligidan Buxoro, Samarqand, Navoiy, Angren va Xiva shaharlarida pedagogika va o'qituvchilar tayyorlash institutlari ochildi.
A) 1, 3, 5 B) 1, 2, 3 C) 4, 5, 6 D) 2, 4, 6

52. Quyidagi ma'lumotlar orasidan to'g'rilarini toping.
 1) 1994 yildagi ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekiston kasaba uyushmalarining 53 mingga yaqin boshlang'ich tashkilotlariga ixtiyoriy ravishda birlashgan 7,5 milliondan ziyod a'zolari bo'lgan.
 2) 1996-yil dekabrda O'zbekiston Prezidentining farmoni bilan Faxriylar Kengashi "Nuroni" jamg'armasiga aylantirildi.
 3) O'zbekistonda 1996-yilda ommaviy axborot vositalarini demokratiyalashtirish va qo'llab quvvatlash bilan shug'ullanuvchi ijtimoiy-siyosiy jamg'arma tashkil etildi.
 4) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997-yil 7-maydagi "O'zbekiston ijtimoiy taraqqiyotida televideniye va radioning rolini oshirish chora tadbirlari to'g'risidagi" Farmoniga ko'ra, O'zbekiston Davlat televideniye va radio eshittirish qo'mitasi O'zbekiston teleradiokompaniyasiga aylantirildi.
 5) 2009-yilning oktabrida "O'zavtosanoat" va AQSh ning General Motors kompaniyasi o'rtasida zavod bazasida "GM-O'zbekiston" qo'shma korxonasi tashkil etish to'g'risida bitim imzolandi, shartnomaga ko'ra, aksiyalarning 25%i GMga tegishli
 A) 1, 3, 4 B) 2, 3, 4 C) 3, 4, 5 D) 1, 2, 5
53. Qaysi javobda katolik cherkovi bilan bog'liq tushunchalar ko'rsatilgan?
 1) indulgensiya; 2) ratusha; 3) interdikt; 4) renessans;
 5) inkvizitsiya; 6) remonstratsiya; 7) autodafe.
 A) 1, 3, 5, 7 B) 2, 3, 4, 7 C) 2, 5, 6, 7 D) 1, 2, 3, 4
54. RKP(b) MQ "Turkiston-Buxoro ishlari haqida" qaror qabul qilgan yilda sodir bo'lgan voqeani aniqlang.
 A) Germaniya Lokarno shahrida "Reyn pakti"ni imzoladi.
 B) Baltimor-Ogayo deb nomlangan reja qabul qilindi.
 C) Vitvatersrandeda qurolli qo'zg'olon kelib chiqdi.
 D) Kichik Antanta tashkil topdi.
55. Arab xalifaligiga qarshi Rofe ibn Lays boshchiligidagi qo'zg'olon boshlangan shaharni 1723-yilda egallab o'ziga "amir ul-umaro" unvonini olgan shaxs qaysi shahar hokimi edi?
 A) Kitob B) Buxoro C) Shahrisabz D) Balx
56. "Sho'royi Islomiya" ta'sirida joylarda vujudga kelgan tashkilotlar va hududlar mos ravishda berilgan javobni toping.
 1) Andijon; 2) Samarqand; 3) Kattaqo'rg'on;
 a) Ravnaqul-islom; b) Ma'rifat; c) Musulmon mehnatkashlar ittifoqi
 A) 1-b, 2-a, 3-c B) 1-c, 2-a, 3-b C) 1-c, 2-b, 3-a
 D) 1-b, 2-c, 3-a
57. Nechanchi yildan boshlab O'zbekiston Buyuk Britaniyaning RJ-85 samolyotlarini sotib ola boshladi?
 A) 1995-yildan B) 1998-yildan C) 1996-yildan
 D) 1997-yildan
58. Qo'qon xonligida qaysi mansabdor shaxs nufuzi jihatidan bora-bora birinchi o'ringa chiqib, xonlikda bosh vazir hisoblangan?
 A) qushbegi B) mingboshi C) devonbegi
 D) parvonachi
59. Qadimda davlat boshqaruvida **sohibi shurat** devoni qanday ishlarga mas'ul bo'lgan? (Somoniy davri)
 A) xo'jalik tartibotiga B) moliyaviy ishlarga
 C) elchilik aloqalariga D) harbiy ishlarga
60. Quyidagi qaysi Osiyo davlatida 1963-yilgi islohot natijasida ayollarga erkaklar bilan teng saylov huquqi berildi, hayotga yevropacha tus berish boshlandi?
 A) Eron B) Malayziya C) Hindiston D) Tailand
61. Puni urushlari natijasida Sitsiliyadagi yo'qotishlar uchun Karfagen quldorlari o'zlarini taqdirlash va qanoatlantirish maqsadida qaysi huduni bosib oldilar?
 A) Kichik Osiyo B) Ispaniya C) Krit D) Sardiniya
62. Quyidagi qaysi shaxs 1920-yilda "Orqaga, Afrikaga!" shiori bilan chiqib, o'zini "Afrikaning birinchi imperatori" deb e'lon qilgan?
 A) T.Mboki B) H.Burgiba C) M.Garvi D) M.Gersog
63. General I.V.Panfilovning diviziyasida Toshkent piyoda bilim yurti va O'rta Osiyo harbiy okrugining harbiy-siyosiy bilim yurtini tamomlagan zobitlardan necha nafari xizmat qilgan?
 A) 280 B) 200 C) 170 D) 180
64. 1918-1920-yillardagi fuqarolar urushi davrida Rossiya janubida o'z diktaturasini o'rnatgan oq gvardiyachilar harakati rahbarini aniqlang.
 A) A.V.Kolchak B) N.N.Yudenich C) A.I.Denikin
 D) E.K.Miller
65. XIX asrning I yarmida Xiva xonligida mavjud bo'lgan uchta devon qanday sohalar bilan shug'ullangan?
 1) xo'jalik; 2) soliq va yig'imlar; 3) ijtimoiy-siyosiy ishlar;
 4) yer masalalari; 5) harbiy ishlar; 6) chegaralar masalasi
 A) 1, 2, 4 B) 1, 3, 5 C) 3, 5, 6 D) 2, 4, 6
66. Quyidagi voqealardan bir yilda sodir bo'lgalarini toping.
 1. Rimda xristianlik dini boshqa dinlar bilan teng deb e'lon qilindi. 2. So'g'dga xoniylar bostirib kirdilar. 3. G'arbiy Rim imperiyasi quladi. 4. Koguryo xitoylarni batamom o'z hududidan surib chiqardi. 5. Kushon davlati tashkil topdi.
 A) 1, 5 B) 4, 5 C) 1, 4 D) 2, 3
67. Bir asrda ro'y bergan voqealarni toping.
 1) mushket ixtiro qilinishi; 2) diniy reformatsiyaning G'arbiy Yevropa qator mamlakatlariga ham yoyilishi; 3) Angliyada Tyudorlar sulolasi hukmronligi; 4) Injilning fransuzchaga tarjima qilinishi; 5) Rossiyada oprichniklarning paydo bo'lishi; 6) Ispaniya tomonidan Gollandiya mustaqilligining tan olinishi
 A) 1,3,4,5 B) 1,2,4,6 C) 2,3,4,5 D) 1,2,5,6
68. Fransiyada quyidagi qaysi qirolning hukmronligi davrida qirol yerlaridagi feodal urushlar taqiqlangan edi?
 A) Filipp II B) Filipp IV C) Lyudovik IX
 D) Karl VII
69. Yunon-Baqtriya podsholigi qaysi hukmdor davrida o'z taraqqiyotining yuqori cho'qqisiga ko'tarildi?
 A) Demetriy B) Yevtidem C) Diodot D) Geliokl
26. O'ttizinchi yillarning o'rtalarida, bolaligimni o'ylaganimda chalakam-chatti tush ko'rganday bo'lar edim// dumli yulduz chiqqan edi// Babar (Bobur bo'lsa kerak) degan yigitni otqorovul miltiq bilan otganda o'lmagan edi.
Ushbu gapda // belgisi o'rniga qaysi tinish belgilari qo'yiladi?
A) ikki nuqta, nuqtali vergul B) nuqta, vergul
C) ikki nuqta, vergul D) nuqtali vergul, tire
27. Quyida berilganlardan tobe qismi paronim juftiga ega bo'lgan so'z birikmalarini aniqlang.
1) tuzini ko'rmoq; 2) achinarli hol; 3) yaroqli ashyo; 4) hayot ramzi; 5) novdani egmoq; 6) o'quvchining burchi
A) 1, 5 B) 2, 4, 6 C) 1, 3 D) 1, 2, 3, 5, 6
28. Qaysi gapda birinchi qo'shimchasi shakl yasovchi bilan, ikkinchi qo'shimchasi sifat yasovchi bilan omonim bo'la oladigan so'z ega vazifasida kelgan?
A) Sizga jo'shqinlik yetishmayapti.
B) Hasharga yig'ilganlar fidokorona ishladi.
C) Bilimdon va tadbirkor raqobatbardosh yoshlar vatanimizning kelajagi hisoblanadi.
D) Ishsizlik ildiziga bolta urdik.
29. Mehnatni sevmagan odam bir buzuvchilikni qilishga tayyordir.
Ushbu sodda gapni qaysi vosita yordamida havola bo'lakli qo'shma gapga aylantirish mumkin?
A) nisbiy so'zlar yordamida B) deb so'zi yordamida
C) ko'makchili qurilmalar orqali
D) toki maqsad bog'lovchisi orqali
30. Qaysi gapda yordamchi so'z turkumlarining barchasiga oid birliklar ishtirok etmagan?
A) Buyuk bobomiz faqat turkiy emas, forsiy, arabiy, urdu, xitoy, mo'g'ul va boshqa tillardagi so'zlardan ham mahorat bilan foydalangan.
B) Cho'lquvarlarni na issiq, na suvsizlik yenga oladi, balki ular o'z jasoratlari, mehnatlari bilan tabiatni zabt etadilar.
C) Bu she'r menga bag'ishlangani uchungina emas, balki unda ulug' shoirning buloq suvlari kabi musaffo qalbi mavj urib turgani uchun ham sevaman.
D) Sen ham men kabi rohatda yashasang bo'lmaydimi, chunki mening hayotimda hech bir mashaqqat yo'q.
31. Oybekning qissalari berilgan qatorni toping.
A) "Baxtigul va Sog'indiq", "O'ch", "Navoiy"
B) "Qutlug' qon", "Dilbar davr qizi", "Nur qidirib"
C) "Ulug' yo'l", "Oltin vodiyan shabadalar", "Quyosh qoraymas"
D) "Nur qidirib", "Bola Alisher", "Bolalik"
32. "Sohibqiron" dramasida sodiqlik, fidoyilik ufurib turgan
"Siz amr eting – kemirgaymiz Ko'hi Qofni ham.
Siz amr eting – simirgaymiz Bahr-u ummonni...
Sizning aziz joningizga otirilgan har o'q
Eng avvalo, kelib tekkay bizning ko'krakka"
misralari Amir Temurga qarata kimning tilidan bayon etilgan?
A) Mavlonozoda B) Qosimbek C) Aloviddin
D) Barlos Bahodir
33. 1) terim; 2) bog'lar; 3) ko'zlar; 4) qaynatma; 5) qovurma
Berilgan so'zlardan qaysilarning tarkibi asos va bitta ko'makchi morfemadan iborat ma'noli qismga ajrala oladi?
A) faqat 5 B) 1, 2, 3, 5 C) 2, 3, 4, 5 D) 1, 2, 3, 4
34. "Sulton Abulqosim Bobur (1422-1457) so'zamal va hunarparvar podshoh edi. U ba'zi paytlarda ulug' amir (Alisher Navoiy) bitgan turkiycha, forsiycha she'rlarni mutolaa qilar, ta'bining qudrati va sharofatli so'zlarining shirinligidan hayratlanar, ta'ajjubga tushar, ziyrakligi, muloyimligi uchun ofarinlar o'qir edi".
Alisher Navoiy haqidagi ushbu fikrlar qaysi manbada keltirilgan?
A) Nizomiy Aruziy Samarqandiy "Majma'un-navodir"
B) Xondamir "Habib us-siyar"
C) Mirxond "Ravzat us-safo"
D) Davlatshoh Samarqandiy "Tazkirat ush-shuaro"

35. Cho'lponning "Kecha va kunduz" asarida "Bolasining yoniga nima uchun otasini jo'natmaydi bu ahmoq o'rus? Adolat bormi kofirda?!" degan gaplarni kim aytadi?
A) tilmoch B) eshon C) domla D) muridlar

36. Qaysi gapda uch turkumga oid yasama so'z ishtirok etmagan?
A) Hulkarning och jigarrang yonoqlarida ajib bir qizillik o'ynaydi.
B) Beruniy ilm yo'lidagi hamkorlikni juda qadrlardi, shuning uchun ham o'z davrining taniqli olimlari bilan ilmiy aloqalar o'rnatgan edi.
C) Giyohvandlik - insoniyat kushandasi, shu tufayli unga qarshi dunyo ahli ommaviy kurash olib bormoqda.
D) O'qituvchi bolalarga "Guliston" va "Bo'ston" kabi kitoblarni mustaqil mutolaa qilishga ruxsat bergan edi.

37. Qaysi javobda Nobel mukofotiga sazovor bo'lmagan romanlar ko'rsatilgan?
1) "Alvido, qurol"; 2) "Tinch Don"; 3) "Ochilgan qo'riq"; 4) "Chol va dengiz"
A) 2, 4 B) 1, 4 C) 1, 3 D) 2, 3

38. Abdullaxon II saroyida xizmat qilgan qaysi shoir o'z she'rlarida yuqori tabaqa vakillarining adolatsizliklarini ayovsiz fosh etgan?
A) Turdi Farog'iy B) Muqim Obid C) Mushfiqiy D) Mahmud

39. Qachon Sparta Afinaning asosiy raqibiga aylandi?
A) mil.av. VI asrning 2-yarmida
B) mil.av. V asrning 1-yarmida
C) mil.av. V asrning 2-yarmida
D) mil.av. VI asrning 1-yarmida

40. Fransiyada hukumatni R.Puankare boshqargan davr bilan bog'liq ma'lumotlarni toping.
1) pul islohoti o'tkazilishi; 2) soliqlarning 9 mlrd frankka ko'paytirilishi; 3) davlat xarajatlarining qisqartirilishi; 4) urush nogironlariga to'lanadigan nafaqalarning kamaytirilishi; 5) ishsizlik va nogironlik nafaqalarining bekor qilinishi; 6) ta'lim islohoti o'tkazilishi
A) 2, 3, 6 B) 1, 3, 5 C) 1, 5, 6 D) 2, 3, 4

41. Bir yilda vujudga kelgan shaharlar to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.
1) Gagarin; 2) Zafarobod; 3) Do'stlik; 4) Paxtakor; 5) Arnasoy
A) 1, 2, 3 B) 1, 2, 5 C) 1, 3, 4 D) 3, 4, 5

42. Shumer-Akkad davlati ko'chmanchi qabilalar zarbasidan parchalangan davrda quyidagilardan qaysilari sodir bo'lgan?
1. Xitoyda qabilalar ittifoqlari paydo bo'la boshladi; 2. Misrda quyosh xudosi fir'avnlarining bosh ilohi va homiysiga aylandi; 3. Kichik Osiyo sohillarida finikiyaliklar koloniyalarga asos soldilar; 4. Old Osiyo hududida ilk davlatlar vujudga kela boshladi; 5. Eron hududlarida dastlabki davlatlar paydo bo'ldi
A) 1, 3, 5 B) 2, 4, 5 C) 1, 4, 5 D) 2, 3, 4

43. Qaysi javobda Sosoniy hukmdori Peruz birinchi bor eftallarga asir tushganda uni o'lpon to'lab tutqinlikdan ozod qilgan imperator hukmronlik qilgan davlat nomi keltirilgan?
A) Midiya B) Misr C) Hindiston D) Vizantiya

44. Ingliz ma'muriyati tomonidan Bengaliya ikki qismga bo'lingan yil va u qayta birlashtirilgan yil oralig'ida dunyo tarixida bo'lib o'tgan voqealarni toping. 1. Eronda inqilob bo'lib o'tdi. 2. Turkiyada hukumatni "Hurriyat va birdamlik" partiyasi boshqardi. 3. Yaponiya Koreya yarimorolini harbiy kuch bilan o'ziga qo'shib oldi. 4. Yaponiya-Rossiya urushi boshlandi. 5. Turkiyada "Ittihodi Muhammadi" partiyasining tarafdorlari bo'lgan harbiylar isyoni ko'tarildi.
A) 2, 4, 5 B) 1, 3, 5 C) 2, 3, 5 D) 1, 2, 3

45. XX asrning 20-yillarida Jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni hal etishning Amerika yo'li to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping.
A) qo'shni mamlakatlarning harbiy qo'ligi tufayli harbiy sohaga ketadigan xarajatlarni g'arbiy hududlarni o'zlashtirishga sarflash
B) tadbirkorlik faoliyatini o'stirish orqali mulkdorlarni yanada boyitish va bu boylikning bir qismini ijtimoiy muammolarni hal etishga sarflash
C) g'arbdagi bo'sh yotgan yerlarni o'zlashtirish va undan keladigan daromadlarni sanoat rivojiga yo'naltirish
D) qishloq xo'jaligida zamonaviy texnika yangiliklaridan keng foydalanish va shu yo'l bilan qashshoqlarga yordam berish

46. Qaysi javobda Chor Rossiyasi tomonidan bir yilda bosib olingan Turkiston shaharlari ko'rsatilgan?
1) Avliyo ota; 2) Toshkent; 3) Turkiston; 4) Oqmachit; 5) Chimkent; 6) O'ratepa.
A) 2, 3, 4 B) 1, 3, 6 C) 2, 4, 6 D) 1, 3, 5

47. Yuz yillik urushdagi Azenkur jangidan so'ng Burgundiya gersogi ham inglizlar tomoniga o'tib ketadi. Uning yordami bilan inglizlar qayerni bosib oladilar?
A) Tuluzani B) Parijni C) Flandriyani D) Akvitanian

48. Buyuk Britaniya 2002-yilda AQShning Afg'onistonga qarshi urushida qatnashdi va AQSh bilan birgalikda Iroqqa o'z qo'shinlarini yuborib, terrorizmga qarshi kurashgan edi. Bunga javoban nechanchi yilda Buyuk Britaniyada qator portlashlar uyushtirildi?
A) 2002-yilda B) 2005-yilda C) 2003-yilda D) 2004-yilda

49. Avstriya-Vengriya va Rossiya manfaatlari Bolqon yarimoroli masalasida to'qnash kelgan davrda bu yerda qaysi davlat katta mustamlakalarga ega edi?
A) Italiya B) Bolgariya C) Buyuk Britaniya D) Turkiya

50. O'zbekistonda "O'zbekoltin" birlashmasi tuzilgach, uning tarkibida Chodak boyitish kombinati nechanchi yilda qurilib ishga tushirdi?
A) 1965-yil B) 1980-yil C) 1975-yil D) 1970-yil

51. Muhammad Amin inoq turkman qabilalariga qarshi kurashda muvaffaqiyatsizlikka uchragandan so'ng turkman qabilalari Xorazmni egallab, quyidagi qaysi shaharlarni xonavayron qildilar?
1) Hazorasp; 2) G'azovot; 3) Xonqa; 4) Urganch; 5) Vazir; 6) Kat; 7) Qo'ng'iroq; 8) Shohobod
A) 2, 3, 4, 6, 7 B) 1, 3, 4, 5, 7 C) 1, 2, 4, 6, 7 D) 1, 3, 4, 6, 8

52. Tekin ishchi kuchiga ega bo'lgan mustamlakachilar 1510-yildan boshlab yurita boshlagan Konkista siyosati qachongacha davom etgan?
A) XVI asr oxirigacha B) XVIII asr boshlarigacha C) XVII asr boshlarigacha D) XVII asr o'talarigacha

TARIX

53. Hindistonda Buyuk Britaniya hukumati tomonidan tuz solig'i joriy etilgan yili O'rta Osiyoda ...
 A) Turkiston general-gubernatorligi tashkil etildi
 B) Turkiston viloyati tashkil etildi
 C) Sirdaryo viloyati tashkil etildi
 D) Zarafshon okrugi tuzildi
54. Quyidagi ma'lumotlar orasidan to'g'rilarini toping.
 1) 1996 yildagi ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekiston kasaba uyushmalarining 53 mingga yaqin boshlang'ich tashkilotlariga ixtiyoriy ravishda birlashgan 7,5 milliondan ziyod a'zolari bo'lgan.
 2) 1995-yil dekabrda O'zbekiston Prezidentining farmoni bilan Faxriylar Kengashi "Nuroniylar" jamg'armasiga aylantirildi.
 3) O'zbekistonda 1996-yilda ommaviy axborot vositalarini demokratiyalashtirish va qo'llab quvvatlash bilan shug'ullanuvchi ijtimoiy-siyosiy jamg'arma tashkil etildi.
 4) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998-yil 7-maydagi "O'zbekiston ijtimoiy taraqqiyotida televideniye va radioning rolini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoniga ko'ra, O'zbekiston Davlat televideniye va radio eshittirish qo'mitasi O'zbekiston teleradiokompaniyasiga aylantirildi.
 5) 2007-yilning oktabrida "O'zavtosanoat" va AQShning General Motors kompaniyasi o'rtasida "GM-O'zbekiston" qo'shma korxonasi tashkil etish to'g'risida bitim imzolandi, shartnomaga ko'ra, aksiyalarning 25%i GMga tegishli.
 A) 1, 3, 5 B) 2, 3, 5 C) 1, 2, 4 D) 1, 3, 4
55. XVI asr oxirida Eron shohi Abbosning Buxoro xonligiga hujumidan foydalanib quyidagi qaysi davlat o'z mustaqilligini tiklab oldi?
 A) Xuroson B) Afg'oniston C) Hindiston D) Xorazm
56. Germaniyaning birlashuviga qadar Gabsburglar sulolasidan bo'lgan imperatorlar Germaniyaning qaysi hududida hukmronlik qilgan?
 A) Prussiyadagi yerlarida B) Lyuksemburdagi yerlarida
 C) Bovariyadagi yerlarida D) Avstriyadagi yerlarida
57. Quyidagi voqealardan qaysi biri Abu Muslim va Bobek qo'zg'olonlari boshlangan yillar oralig'ida sodir bo'lgan?
 A) Safforiylar Xurosonda hokimiyatni qo'lga oldi.
 B) Somoniylar davlati tashkil topdi.
 C) Xalifa Mansur katta harbiy kuchlarni Movarounnahrda qo'zg'olonni bostirishga safarbar etdi.
 D) Marvon II taxtga o'tirdi.
58. Otto fon Bismark o'zining siyosiy rejalarini amalga oshirish yo'lidagi asosiy g'ov deb qaysi davlatni hisoblar edi?
 A) Rossiya B) Buyuk Britaniya C) AQShni
 D) Fransiya
59. Ma'lumki, Yevropa davlatlari XVII-XIX asrlar davomida Afrikani mustamlakalashtirgan edi. Quyidagilardan Portugaliya mustamlakalarini aniqlang.
 1) Mozambik; 2) Gambiya; 3) Angola; 4) Somali; 5) Niger
 A) 2, 5 B) 3, 4 C) 1, 3 D) 1, 5
60. "Avesto"ning 2700 yilligi keng nishonlangan yilni aniqlang.
 A) 2001 yil B) 2003 yil C) 2002 yil D) 2000 yil
61. XX asr boshlarida xalq ta'limi tizimini yaxshilash, mahalliy aholi farzandlarini yangi sovet maktablariga ko'proq jalb qilish, ularga puxta bilim va tarbiya berish borasida astoydil faoliyat ko'rsatgan xalq ta'limi namoyondalari to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping.
 1) S.Sodiqov; 2) K.Dadamammedov; 3) Z.Qosimov;
 4) B.O'razov; 5) V.Kashapov; 6) J.Odilov; 7) M.Bektemirov;
 8) O.Sharafuddinov
 A) 1, 2, 6, 8 B) 1, 2, 5, 7 C) 1, 3, 6, 8 D) 3, 4, 5, 7
62. Nechanchi yilda va kim boshchiligidagi xoniylar So'g'dga bostirib kirganlar?
 A) 351-yil, Xion B) 353-yil, Sumbat
 C) 353-yil, Grumbat D) 355-yil, Malxut
63. Afrikada mustamlakachilik tizimi yemirilishi Osiyoga nisbatan sekin borganligining sabablarini aniqlang.
 1) Afrika davlatlarining qo'loqligi;
 2) Afrika davlatlarining kechroq mustamlakaga aylantirilganligi;
 3) Milliy ozodlik kurashiga rahbarlik qiluvchi ijtimoiy kuchlarning zaifligi;
 4) Mustamlakalarning yagona ittifoqqa birlasha olmaganligi
 A) 1, 3 B) 3, 4 C) 2, 3 D) 1, 4
64. Kanada marokashliklar hukmronligiga qachon chek qo'yildi?
 A) 1097-yilda B) 1087-yilda C) 1173-yilda
 D) 1076-yilda
65. Qadimda Rimlik legionerlar 25 yillik xizmat qilish evaziga qanday imkoniyatlarga ega bo'lganlar?
 1) uy-joyga ega bo'lish; 2) yilda bir marta dam olish;
 3) durustgina oylik maosh olish; 4) konsullar saylovida ishtirok etish; 5) Rim tarkibidagi turli o'lkalarda xizmat qilish
 A) 1, 2, 5 B) 2, 3, 4 C) 1, 3, 5 D) 1, 2, 4
66. Quyidagi tarixiy voqealardan qaysilari VII asr Xitoy tarixiga oid?
 1) Suy sulolasining barham topishi; 2) Xan imperiyasining inqirozi; 3) Tan sulolasining hokimiyatga kelishi; 4) yagona pul – "syang"ning joriy etilishi; 5) Suy sulolasining hokimiyatga kelishi; 6) Xanchjou, Kayfin, Yanchjou shaharlarining yuksalishi
 A) 1, 3, 4, 6 B) 2, 4, 5, 6 C) 2, 3, 4, 6 D) 1, 3, 4, 5
67. Quyida berilganlardan XIX asrda Afrikadagi eng muhim qul savdosi bazalarini aniqlang.
 1) Misr; 2) Tunis; 3) Marokash; 4) Sudan; 5) Angola;
 6) Mozambik; 7) Madagaskar
 A) 4, 7 B) 3, 4 C) 1, 2 D) 5, 6
68. Fransiya monarxiya ag'darilib tashlangan vaqtda (1792-yil) yakobinchilar tomonidan ilgari surilgan talablarni aniqlang.
 1) mamlakatdagi boshqaruvni izga solish uchun harbiy xuntalar tashkil etish; 2) qirolni darhol sud qilish va qatl etish; 3) Respublika e'lon qilish; 4) feodal qaramlikni butunlay tugatish; 5) inqilobiy diktaturani to'xtatish; 6) chet ellik bosqinchilarga qarshi inqilobiy urush olib borish.
 A) 1, 3, 4, 6 B) 2, 3, 5, 6 C) 1, 4, 5, 6 D) 2, 3, 4, 6
69. "Katta uchlik" davlatlari qaysi masalada yagona fikrda edi?
 A) Yevropada Buyuk Britaniyaning hukmronligini saqlab qolish
 B) Sovet Rossiyasiga qarshi kurash
 C) Germaniyaning mustamlakalarini saqlab qolish
 D) Germaniya kuchayib ketishining oldini olish
70. Qadimda davlat boshqaruvida **sohibi shurat** devoni qanday ishlarga mas'ul bo'lgan? (Somoniylar davri)
 A) xo'jalik tartibotiga B) moliyaviy ishlarga
 C) elchilik aloqalariga D) harbiy ishlarga
71. Quyidagi qaysi shaxs hukmronligi davrida (XVII asr boshlari) Xiva xonligida parokandalik eng yuqori nuqtasiga yetgan edi?
 A) Olloqulixon B) Elbarsxon C) Nuralixon
 D) Arab Muhammadxon
72. "Al-izoh" jurnali ... ning nashriy organi hisoblangan.
 A) "Yosh buxoroliklar" B) "Sho'royi Islomiyah"
 C) "Sho'royi Ulamo" D) "Yosh turklar"

73. You ... slow down to about 30 kilometers an hour when you are driving through a school zone between dawn and dusk.
A) *had to* B) *must* C) *were supposed to* D) *should*
74. Choose the best answer.
I ... a new laptop if my boss allows me to work at home.
A) *might have bought* B) *may buy* C) *had to buy*
D) *could have bought*
75. Choose the best answer.
I was wondering ... me some money.
A) *that you can lend* B) *if you lend* C) *if you could lend*
D) *that you lent*
76. Choose the answer which correctly completes the sentence.
I think, it's ... in Scotland. I'm not sure where he lives.
A) *something* B) *somewhere* C) *somewhat*
D) *nowhere*
77. Choose the best answer.
I did not know that it was so important for you. I would ... it long ago.
A) *have done* B) *do* C) *be done* D) *had done*
78. Choose the best answer.
My parents let me ... what I wanted when I was young.
A) *doing* B) *does* C) *do* D) *to do*
79. Choose the best answer.
A special machine will be used to ... the dirt from the top layer of the dress.
A) *recycle* B) *recover* C) *refresh* D) *remove*
80. Complete the sentence with a suitable word or phrase.
Jim managed to climb into the house ... a ladder he found.
A) *but for* B) *with a view to* C) *subject to*
D) *by means of*
81. Choose the best answer.
I'll be back from the business trip next Friday. ... good-bye everybody!
A) *Before then* B) *Until then* C) *Right then*
D) *Since then*
82. Choose the answer which correctly completes the sentence.
If anything happens to the children, you may go to ... hospital to get medical aid.
A) *no* B) *any* C) *some* D) *several*
83. Choose the correct answer.
She hates when people arrive
A) *lately* B) *the latest* C) *late* D) *later*
84. Choose the best answer.
Do you see what the child ... with your hat? Take it from him.
A) *have done* B) *has been doing* C) *does* D) *is doing*
85. Choose the best answer.
Our teacher told us, "Discuss your ideas with your partner before presenting." Our teacher told us ... partner before presenting.
A) *to discuss our ideas with our*
B) *discussed our ideas with our*
C) *to discuss your ideas with our*
D) *discussing your ideas with your*
86. Choose the best answer.
I've got sore feet. I ... for six hours already.
A) *have been walking* B) *will have walked*
C) *had been walking* D) *have been walked*
87. Florida's long coastline and warm weather ... swimmers to its sandy shores.
A) *is attracted* B) *are attracted* C) *attract*
D) *attracts*
88. Choose the answer which correctly completes the sentence.
Mobile phones appeared only a few years ago. Now most people ... cannot imagine their lives without them.
A) *simply* B) *simple* C) *simplest* D) *simpler*
89. Choose the answer which correctly completes the sentence.
Bill asked Rosa for her e-mail address ... he needed to contact her.
A) *in case* B) *unless* C) *as long as* D) *if*
90. Choose the answer which correctly completes the sentence.
My wife reminded me, "I am having dinner with my friend after work."
My wife reminded me that ... friend after work.
A) *she is having dinner with her*
B) *I was having dinner with my*
C) *she was having dinner with her*
D) *I am having dinner with my*
91. Choose the answer which correctly completes the sentence.
Magazines like "Times", "Newsweek", "U.S. News" and "World Report" provide the reader ... a pictorial report of the week's events.
A) *by* B) *on* C) *with* D) *for*
92. Choose the best answer.
We look forward ... from you soon.
A) *hearing* B) *to hear* C) *to hearing* D) *heard*
- Read the text. Then choose the correct answer for each question below (93-96).
- Roses are the oldest source of perfume. Ancient documents mention rose oil, which is the strongest form of this scent, and in the "Iliad" Homer relates how Aphrodite rubbed Hector's dead body with rose oil. What was meant by rose oil in these texts was not what we mean by this term today, since we learn from Hippocrates that it was obtained by stirring rose petals into hot olive oil. The method of extracting essential oil of roses was not discovered until much later. The most delightful story told of the discovery of the essential oil relates to the Emperor Jahangir (1569-1627) who is said to have had distilled rose water poured into channels in the **extensive** garden of his palace so that the air was filled with this beautiful scent.
93. According to the text, all of the following statements are FALSE, EXCEPT:
A) *The Emperor Jahangir made the rose oil popular in the Middle Ages.*
B) *According to Hippocrates, rose oil was made by mixing rose petals into hot olive oil.*
C) *Ancient documents mention essential rose oil, which is the strongest form of the scent.*
D) *Rose oil as we know today is the same as that one which is mentioned in early texts.*
94. It is mentioned in the passage that the rose oil of modern times is...
A) *made from fresh roses.*
B) *quiet different from that mentioned in ancient texts.*
C) *produced by main manufacturers according to the ancient formula.*
D) *the same as that used in the past.*
95. The word "extensive" in the text is closest in meaning to...
A) *gorgeous* B) *beautiful* C) *flowery* D) *spacious*

96. One can deduce from the passage, that the use of rose oil...

- A) began in mythological times
- B) is reserved for the dead.
- C) began with the Emperor Jahangir.
- D) is essential nowadays for everybody.

Read the text. Then choose the correct answer for each question below (97-100).

Much has been said and written about the declining numbers of and disappointing lack of diversity among college students majoring in engineering. Among the factors cited to explain this phenomenon are the lack of exposure of high school students to the very idea of engineering and the fact that many have insufficient mathematics and science background to gain entrance to engineering school, even if they do identify the profession as a possible career. This is unfortunate, for the ideas of engineering should be integrated into the curricula not only of high schools but also of middle and primary schools. Our children are being done a disservice by not being exposed properly throughout their education to engineering activities identified as such. After all, even pre-school children have the prerequisites in their play for appreciating exactly what engineering is: design. Indeed, design is everywhere around them throughout their school day, even in their before-school and after-school activities. It need only be pointed out to them that they are designing something, and therefore being engineers of sorts, in virtually everything that they do.

97. The writer of the passage feels strongly that...

- A) children should be involved in engineering activities at an early age.
- B) university engineering courses ought to be upgraded.
- C) the mathematics and science courses at schools need to be modernized.
- D) many children are being unfairly directed into a career in engineering.

98. The writer points out that children can ..., at a very early age.

- A) learn something about the basis of engineering
- B) develop an interest in scientific matters
- C) be encouraged to take part in after-school activities
- D) make up their minds to study engineering at university

99. The writer recognizes the fact that engineering...

- A) is becoming less and less popular among university students.
- B) has become one of the most popular fields of study at universities.
- C) is a complicated subject only suitable for really mature students.
- D) is only suitable for highly intelligent students.

100. Among the reasons given in the text for the decline in the numbers of engineering students is that...

- A) the schools still follow out-dated curricula.
- B) many of them have insufficient mathematics and science background.
- C) university entrance requirements are far too demanding.
- D) engineering is not considered to be a competitive field of study.

Read the text. Then choose the correct answer for each question below (101-104).

One of the largest and most difficult engineering projects ever undertaken, the Panama Canal shortcut greatly reduced the time for ships to travel between the Atlantic and Pacific Oceans, enabling them to avoid the lengthy, hazardous Cape Horn route around the southernmost tip of South America via the Drake Passage or Strait of Magellan.

In 1920, after some thirty-nine years of problems with disease, high costs and politics, the Panama Canal was officially opened. This linked the Atlantic and Pacific Oceans by allowing ships to pass through the fifty-mile Canal Zone instead of travelling some seven thousand miles around Cape Horn. It takes a ship approximately eight hours to complete the trip through the canal, and costs a tenth of what it would cost the average ship to round the Horn. More than fifteen thousand ships use the canal annually.

101. The passage informs us that...

- A) high costs and politics were the only obstacles to construct the canal.
- B) all diseases have been combatted since the construction of the canal.
- C) the Panama Canal built between the Atlantic and Pacific Oceans is less than 55 miles.
- D) it took much more than four decades to build the Panama Canal.

102. Which of the statements is true according to the passage? The Panama Canal...

- A) has been officially opened only for travelers.
- B) makes it impossible to cover seven thousand miles in eight hours.
- C) reduced the distance between the Atlantic and Pacific Oceans.
- D) didn't succeed in cutting down the route between the Atlantic and Pacific Oceans much.

103. One can conclude from the passage that before the Panama Canal opened, ...

- A) there was another route from the Atlantic to the Pacific Ocean, but a rather long one.
- B) ships could travel from the Atlantic to the Pacific Ocean every eight hours.
- C) if anyone wanted to undertake the journey by ship from the Atlantic to the Pacific Ocean it wouldn't take longer.
- D) fifteen thousand ships transported travelers around Cape Horn every year.

104. The word "hazardous" in the passage is opposite in meaning to...

- A) *perilous* B) *slow* C) *safe* D) *dangerous*

Read the text. Then choose the correct answer for each question below (105-108).

Water truly is vital to health and to life itself. It makes up on average 60-70% of one's body weight (more in younger individuals, less in older adults). By simply drinking 8-10 glasses a day, one can satisfy the body's needs. Water plays many roles in the day-to-day functioning of the human body. Remember, though, you cannot drink only when you are thirsty. Short changing your body of its water supply will reduce the effectiveness and ability of this wonderful nutrient to play its many roles. A recent study found out that 71% of preschool children do not drink any **plain** water during the course of a day. Some adolescents (and adults too) drink as many as six cans of soft drinks (full of caffeine and sugar) a day. While some would argue that this is indeed fluid, the caffeine acts as a diuretic, which will add to the exhaustion of bodily water. The difference between water and soft drinks is clear. If you drink 12 ounces of plain water, eight ounces of it will be absorbed by your body within 15 minutes. Yet, drink 12 ounces of a soft drink, and less than 1 ounce is absorbed in the same amount of time. Let frequent water drinking become a habit in your life!

105. One can understand from the passage that water is necessary to health because...

- A) *millions of people live with severe shortages of it every day of their lives.*
B) *the world's water supply is limited.*
C) *human's body consists of approximately 60-70 percent of water.*
D) *we need it whenever we are thirsty.*

106. According to the passage, insufficient water intake...

- A) *leads to a malfunction in the body*
B) *will lead to the increase of bodily water*
C) *lessens its effectiveness for the body*
D) *can be restored by soft drinks*

107. The word "plain" in the text is closest in meaning to...

- A) *extra* B) *pure* C) *soft* D) *mineral*

108. The main idea in the passage is that...

- A) *soft drink intake should be reduced up to 60-70% of one's body weight.*
B) *people should drink as much water as possible if they want to be healthier.*
C) *preschool children as well as most adults are fond of soft drinks.*
D) *plain water is easily absorbed by the body.*

ONA TILI VA ADABIYOTI

1. Qaysi qatorda O'lmas Umarbekovning bir janrga kiruvchi asarlari berilgan?

- A) "Oqar suv", "Yer yonganda", "Kuzning birinchi kuni"
 B) "Arizasiga ko'ra", "Damir Usmonovning ikki bahori", "Sud"
 C) "Odam bo'lish qiyin", "Cho'li iroq", "Oq qaldirg'och"
 D) "Kurort", "Urush farzandi", "Shohma, quyosh"

2. Vatan! Taqdiringning toshi bemiqdor,
 Aytgin, fido bo'lay qaysi bir toshga? (Usmon Azim)
 Ushbu she'riy parchada nechta sodda yasama so'z qatnashgan?

- A) 1 B) 4 C) 2 D) 3

3. "Boburnoma"dan olingan quyidagi parchada kim haqida ma'lumot berilgan?

"Bovujudkim, ulug' yosh yashab, oq soqolliq bo'lub edi, xushrang qizil, yashil abrishimini kiyar edi. Qora qo'zi bo'rk kiyar edi yo qalpoq. Ahyonon iydlarda kichik sepech dastorini yap-yassi yomon chirmon chirmab, qarqaro o'tag'asi sanchib, namozg'a borur erdi".

- A) Alisher Navoiy B) Husayn Bayqaro
 C) Muzaffarmirzo D) Abusaidmirzo

4. Qaysi asarda "ajdar komiga yanglishib ketgan" va nobud bo'lgan bolasi tufayli iztirob chekkan otaning tasviri berilgan?

- A) "Me'mor" (Mirmuhsin) B) "Bulbul" (Andersen)
 C) "Uch og'a-ini botirlar" ertagi
 D) "Avlodlar dovoni" (Pirimqul Qodirov)

5. Qaysi gapda harakat nomi uyushgan aniqlovchi vazifasida kelgan?

- A) Erta bahorda daraxt ekish, yerlarni yumshatish eng yaxshi odatimizdir.
 B) Yozuvchi turmushni har tomonlama o'rganishi, buning uchun uning hamma sohalaridan xabardor bo'lishi kerak.
 C) Bilim o'qish va takrorlash mevasidir.
 D) Birovlarning gapini zimdan tinglash odobdan emas.

6. Qalamkash, avvalo, Inson bolasining quvonch va iztiroblarini, muhabbati va nafratini, buyukligi va tubanligini haqqoniy tasvirlamog'i lozim.

Ushbu gapdagi mavhum otlar sonini aniqlang.

- A) 7 ta B) 6 ta C) 4 ta D) 5 ta

7. "Ko'rar ko'zim ko'rmayotganday, bilar aqlim bilmayotganday bo'ldi (es-hushimdan ayrildim), jonim azobda qoldi. Dunyoni tangri yasaydi, inson bolalari hammasi o'ladigan qilib yaratilgan".
 Ushbu parcha qaysi qahramon o'limi haqida?

- A) Yo'llig' Tigin B) Eltarish xoqon C) Kul Tigin
 D) Bilga xoqon

8. Jarangsiz jufti yo'q lab-lab undoshi qaysi?

- A) n B) m C) p D) b

9. Ushbu gapdagi ismlar guruhiga mansub yasama so'zlar tarkibida munosabat shakllari necha o'rinda qatnashgan?
Hunar ado bo'lmas boylikdir. Ilm kelinchakka o'zshaydi: u pinhoniylilikni yoqtiradi. Erinchak, dangasa insonlar hayotda hech qachon muvaffaqiyat qozona olmaydi. Shu o'g'itlarga amal qilishga odatlaning.

- A) 2 o'rinda B) 4 o'rinda C) 3 o'rinda D) 5 o'rinda

10. Qaysi javobda asliy sifat(lar) ishtirok etgan?

- A) Shohi ro'molli ayol bilan ko'rishdi.
 B) Bugungi ishni ertaga qo'yma!
 C) Xonaga beqasam to'n kiygan do'ppili kishi kirib keldi.
 D) Achchiq savol berib, shirin javob kutma.

11. To'tini o'z ismini aytishga o'rgatishadi. Ismni ko'p qaytarishadi. Bir kuni, ehtimol, bezosdanmi yoki o'z kayfiyatini bildirish uchunmi, u talab qilinayotgan so'zni aytadi va shu ondayoq mukofotlanadi.

Berilgan parchada ot turkumiga mansub so'zlar necha o'rinda qo'llangan?

- A) 5 B) 7 C) 8 D) 6

12. Ertasiga ertalab ona yana yo'lga tushdi. Ular bu yerdan xiyla uzoqlashib ketgan edi. Izlab, aylanma yo'llardan ehtiyotkorona o'tib uzoq yurdi.

Ushbu gapda nechta so'z birikmasi sifatlovchi aniqlovchili birikma sanaladi?

- A) 3 ta B) 2 ta C) bunday birikma ishtirok etmagan
 D) 1 ta

13. "Har gal yangi kitobim chiqishi bilan birinchi nusxasini Onamga taqdim etardim, Birinchi ustozim Oyinga, — deb yozib berardim".

Ushbu satrlar qaysi adibning tarjimai holidan olingan?

- A) Ozod Sharafiddinov B) Tohir Malik
 C) Abdulla Oripov D) O'tkir Hoshimov

14. Bu — men tug'ilgan tuproq. Ha, men tug'ilgan tuproq, Tog'lar, ko'm-ko'k adirlar, daryolar, cheksiz qumloq.

Bo'ronlar qamchilashar, yomg'irlar tomchilashar, Qishda qalin qordan oq, kuzda-chi, paxtadan oq. (Mirtemir)
 Ushbu she'riy parchada so'z yasovchi qo'shimchalar necha o'rinda ishtirok etgan?

- A) 4 B) 3 C) 5 D) 6

15. Yaxshi so'z bilan ilon inidan chiqar.

Ushbu gapdagi qo'shimchalar haqidagi to'g'ri ma'lumotlarni aniqlang.

1) ismning munosabat shakli 2 o'rinda qatnashgan; 2) fe'l nisbati shaklini hosil qiluvchi qo'shimcha 1 o'rinda qatnashgan; 3) belgisiz tushum kelishigi 1 o'rinda qatnashgan; 4) fe'lning munosabat shakli 1 o'rinda qatnashgan

- A) 2, 3 B) 1, 4 C) 1, 2 D) 3, 4

16. Temur tig'i yetmagan joyni qalam bilan oldi Alisher.

She'riy parchada ajratilgan so'zdagi ma'no ko'chish usulini aniqlang.

- A) metafora B) sinekdoxa C) vazifadoshlik
 D) metonimiya

17. Ey shah, karam aylar chog'i teng tut yamon-u yaxshini Kim, mehr nuri teng tushar vayron-u obod ustuna.

Ogahiy qalamiga mansub ushbu misralarda qanday badiiy san'at yaratilgan?

- A) mubolag'a B) tarse' C) iyhom D) tazod

18. Nodiraning qaysi g'azalida turkiy so'z radifga olinib, qofiyadagi so'zlarning barchasi o'zbekcha egalik qo'shimchalari bilan kelgan forscha-tojikcha so'zlardan tashkil topgan?

- A) "Vasl uyin obod qildim..."
 B) "Doda keldim..."
 C) "Fig'onkim, gardishi davron ayirdi shahsuvorimdin..."
 D) "Kel, dahrni imtihon etib ket..."

19. *Asarning tub mohiyatida markazlashgan davlatni barpo qilish, mustahkamlash, turli xon va beklarni birlikka chaqirish, adolatli va oqilona siyosatni amalga oshirish, umrning o'tkinchiligi, ma'naviyat, yashash bilan bog'liq g'oyalar badiiy qomusiy dastur sifatida ilgari surilgan.* Ushbu gapda ishtirok etgan ko'makchilar haqida berilgan to'g'ri hukmni toping.
- A) ko'makchilar bilan shakllangan gap bo'laklari faqat aniqlovchiga tobelangan
B) gapda faqat sof ko'makchi ishtirok etgan
C) ko'makchilar ravish holi vazifasini bajargan bo'laklarni shakllantirishga xizmat qilgan
D) gapda sof va vazifadosh ko'makchi ishtirok etgan
20. **Birov odob o'rgatsa, o'rganmagan kishi hayvon, ammo uzr so'rasa, qabul qilmagan kishi shaytondir.** Ushbu gapda qatnashgan shakl yasovchi qo'shimchalar tarkibida necha o'rinda shovqinlilar guruhiga kiruvchi jarangli portlovchi undosh bor?
- A) 4 ta B) 6 ta C) 3 ta D) 5 ta
21. "Zarbulmasal"da qaysi qahramon Gunashbonuning mahriga berilgan qaysi joy daryoga yaqinligi uchun "bizga muvofiq kelmaydi", deb e'tiroz bildiradi?
- A) Turumtoy, Chakan B) Kuykunak, Xayrobod
C) Ko'rqush, Nishopur D) Boyo'g'li, Yangirabot
22. **Vatan xoinlari hech qachon kechirilmas. Bu xoinlikning eng og'ir gunoh sanalishini unutmang.** Ushbu gapda faqat qo'shimcha qismida tovush o'zgarishi ro'y bergan so'zning sintaktik vazifasini toping.
- A) kesim B) aniqlovchi C) to'ldiruvchi va kesim
D) hol
23. "Ovda-dovda, ko'p yuraman dalada,
Podsholik saltanat menga nima-da:
O'z yurganim menga endi bo'ladi,
Podsholiging menga ma'qul bo'lmadi".
Ushbu parcha qaysi dostonidan olingan?
- A) "Rustamxon" B) "Kuntug'mish" C) "Ravshan"
D) "Alpomish"
24. *Ulardan biri akamning qayerdaligini so'ragan edi, men uning ertalab o'sha yerga, anhora, ketganligini aytdim, o'zim ham ular bilan oldinma-ketin anhora jo'nadim, yarim soatdan so'ng u yerga yetib bordik.* Ushbu gapda qatnashgan ravishlar haqida berilgan hukmlardan nechitasi noto'g'ri?
- 1) ravishning ikki ma'no turi to'ldiruvchiga tobelanib kelgan;
2) gapda 4ta yasama 1ta tub ravish qatnashgan;
3) ravishning tuzilishiga ko'ra 3 turi qatnashgan; 4) gapda qatnashgan ravishlar hokim qismga bitishuv va boshqaruv usulida birikkan
- A) 2tasi B) 4tasi C) 3tasi D) 1tasi
25. Ma'lum bir narsani boshqa narsaga o'xshatib, ularning nomini yonma-yon ishlatish orqali bir tushunchaning ikkita nomi vujudga keladi. Ushbu qoidaga muvofiq keluvchi gap berilgan javobni belgilang.
- A) Qo'llarim ko'ksimda, betinch, betoqat
Ta'zimlar qilurman senga ushbu dam.
B) Ikkalasi hovli sahnida – Kazangapning egasiz qolgan
paxsa devorli kulbasi eshigi oldida uzoq yig'lab turishdi.
C) Shu farzandimning – ko'zim qorasining – elning
ardog'ida bo'lishini xohlayman.
D) Chin uyingda sen qolursan,
Qo'sh qanotim, yaxshi qol!
26. "Kecha va kunduz" romanida "Farzanddan va esdan mahrum, lekin yer-suv, pul va boshqa boylikka ko'milgan" deb ta'riflangan qahramon kim edi?
- A) Noyib to'ra B) Akbarali mingboshi C) Miryoqub
D) Ostanaqul boy
27. Berilgan bir necha bosh gapli murakkab qo'shma gaplarning qaysilarda ergash gap bosh gaplar tarkibidagi har xil gap bo'lagi vazifasida kelgan olmoshning ma'nosini izohlab kelgan?
1. Bizga shu ma'lumki, siz ham shuni bilasizki, g'alabaga erishish oson emas. 2. Kim ertalab vaqtli uyg'onsa, uning ishlari samarali bo'ladi, kun davomida kayfiyati yaxshi bo'ladi. 3. Kimning qalbi pok bo'lsa, uning ishlari o'z-o'zidan yurishib ketaveradi, hamma unga madadkor bo'ladi. 4. Kimki ko'p o'qisa, uning dunyoqarashi kengayadi, fikrlarini hamma hurmat qiladi.
- A) 2, 4 B) 1, 3 C) 1, 2, 3, 4 D) 1, 2, 4
28. Quyidagi qo'shimchalardan nechitasi ayrim so'zlarga qo'shib uning yetakchi morfemasida fonetik o'zgarish bo'lishiga sabab bo'la oladigan omonim so'z yasovchi qo'shimcha sanaladi?
- a, -q, -qi, -ar, -ay, -la, -illa, -ma, -y, -ing
- A) 9 tasi B) 7 tasi C) 6 tasi D) 8 tasi
29. *Birinchi bor bahorni tanigan, ilk bor varrak uchirgan, birinchi marta hayitlik olgan joying, birinchi o'qituvchi, birinchi muhabbatini tanitgan makon – Vatandir!* Ushbu gapda egalar nechta so'z birikmasida hokim qism vazifasini bajargan?
- A) 3 ta B) 5 ta C) 2 ta D) 4 ta
30. "Gar o'qusa, majlisda xonanda ... she'rini,
Zuhra chang qo'psor, qilur shams-qamar zavq-u charoh"
Qaysi shoir o'z she'rlaridagi nafislik, dilbar ohanglar haqida o'zi shunday e'tirof etadi?
- A) Lutfiy B) Sakko'iy C) Gado'iy D) Ato'iy
31. *Ba'zi paytlarda yoshligimning unutilmas damlarini esga olaman. Bolalikdagi o'ynoqi damlarni sog'inaman. Yam-yashil o'tloqlarda dumalatgan, chang ko'chalarda o'ynatgan damlarni unutilmay qiynalamam.* Ushbu parchada tovush tarkibi o'zgargan fe'llar nechta so'zga nisbatan hokim qism vazifasini bajargan?
- A) 5 ta B) 3 ta C) 2 ta D) 4 ta
32. Qaysi javobdagi gapda tinish belgilarining ishlatilishi bo'yicha qoidalariga rioya qilinmagan?
- A) Taqdirin qo'l bilan yaratur inson,
G'oyibdan kelajak baxt – bir afsona.
B) Rang-tusni bildiruvchi sifatlar qanday, qanaqa, qaysi,
so'roqlariga javob bo'ladi.
C) O'zbek, qirg'iz, qozoq, turkman, tojik – barchamiz bitta
yurtning farzandlarimiz.
D) Yana uvlar dahshat shamoli,
Ko'kni qora bulut quchadi.
33. E.Seton-Tompson qaysi kitobi uchun "Alanga medali"ni olgan?
- A) "Yovvoyi hayvonlar hayoti"
B) "Jonivorlar haqida hikoyalar"
C) "Shimoliy hayvonlar hayoti" D) "Quvg'indilar taqdiri"
34. *Kishilarning huquqiy ongi yuksalsa, har kim o'z haq-huqini bilsa, uni himoya qila olsa, jamiyatda demokratiya rivojlanadi.* Ushbu gap...
- A) bir necha ergash gapli murakkab qo'shma gap
B) bir necha bosh gapli murakkab qo'shma gap
C) qismlari uyushgan murakkab qo'shma gap
D) aralash murakkab qo'shma gap

35. Yasalish asosi ham, yasalma ham omonimlik xususiyatiga ega so'zlarni belgilang.
1) kulgich; 2) bog'li; 3) sochma; 4) bo'g'ma
A) 2, 3 B) 2, 3, 4 C) 1, 3 D) 1, 2, 4

36. Quyidagi qaysi birlik(lar) imloviy jihatdan to'g'ri yozilgan?
1) "Sharq" nashriyot-matba konserni; 2) Jahon tinchlik kengashi; 3) Yozuvchilar uyushmasining raisi; 4) Ko'kdumaloq Kompressor Stansiyasi
A) 1, 2, 4 B) 1, 3, 4 C) 3 D) 2, 3

TARIX

37. Arab xalifaligi taxtiga Abbosiylarning chiqishida katta xizmat ko'rsatgan shaxsni aniqlang.
A) Abu Muslim B) Qutayba C) Valid D) Nasr ibn Sayyor

38. Germaniyaning "Simens" firmasi hamda Yevropa tiklanish va tarraqiyot banki ajratgan kredit hisobidan ta'mirlangan obyektni aniqlang.
A) Sirdaryo GRESining 8-bloki
B) Samarqanddagi "MAN" avtozavodi
C) Yangi Angren GRESining 2- va 3-bloklari
D) Bekobod metallurgiya kombinati

39. X asr boshlarida Orolbo'yida yashovchi qaysi xalqlar o'zlari yashab turgan hududdan boshqa hududga ko'chishga majbur bo'lganlar?
A) o'g'uzlar va qarlulqlar B) bijanaklar va qarlulqlar
C) o'g'uzlar va bijanaklar D) o'g'uzlar va qipchoqlar

40. Quyidagi qaysi sayyoh mo'g'ullar istilosidan so'ng Pekindagi shoh saroyida yuksak lavozimni egallagan?
A) italiyalik Marko Polo B) arab geografi al-Ma'sudiy
C) ispaniyalik Vasko da Gama
D) rossiyalik Afanasiy Nikitin

41. XX asrning 60-yillarida sobiq Ittifoqda amalga oshirilgan islohotlarda korxonalarning faoliyatiga baho berishda asosiy ko'rsatkich qanday belgilandi?
A) ishlab chiqilgan yalpi mahsulot emas, eksport qilingan mahsulot asosiy ko'rsatkich deb belgilandi
B) realizatsiya qilingan mahsulot emas, ishlab chiqilgan yalpi mahsulot asosiy ko'rsatkich deb belgilandi
C) davlat rejalarining ortig'i bilan bajarilishi asosiy ko'rsatkich deb belgilandi
D) ishlab chiqilgan yalpi mahsulot emas, realizatsiya qilingan mahsulot asosiy ko'rsatkich deb belgilandi

42. Yaponiya sanoat ishlab chiqarish hajmi bo'yicha Italiyadan o'zib ketib, Fransiyaqa yaqinlashgan yillarda sodir bo'lgan voqealarni ko'rsating.
1. Buyuk Britaniya parlament islohoti o'tkazildi.
2. Rossiyada agrar islohot o'tkazildi.
3. Skobelev boshchiligidagi rus qo'shinlari turkmanlarga qarshi harbiy harakatlar boshladi.
4. "Hindiston milliy kongressi" tuzildi.
5. Efiopiya va Sudan o'rtasida urush harakatlari boshlandi.
6. Sirdaryo magistral kanalini bunyod etish ishlari boshlandi.
A) 2, 3, 6 B) 2, 4, 5 C) 3, 4, 5 D) 1, 2, 6

43. Quyidagi sulolalarni hukmronlik yillari bilan to'g'ri joylashtiring.
1) Suy; 2) Ummaviylar; 3) U Day; 4) Tan; 5) Abbosiylar; 6) Sun;
a) 907-960-yillar; b) 589-618-yillar; c) 750-1258-yillar; d) 960-1279-yillar; e) 661-750-yillar; f) 618-907-yillar.
A) 1-a; 2-e; 3-b; 4-f; 5-d; 6-c B) 1-a; 2-e; 3-b; 4-c; 5-f; 6-d
C) 1-b; 2-e; 3-a; 4-f; 5-c; 6-d D) 1-b; 2-d; 3-a; 4-f; 5-c; 6-e

44. Hindistonda bo'ysunmaslik harakatining ikkinchi bosqichi boshlangan yilni ko'rsating.
A) 1934-yil B) 1933-yil C) 1930-yil D) 1932-yil

45. Angliyada qachon bir palatali parlament vujudga kelgan?
A) XVIII asr boshlaridagi parlament islohoti davrida
B) XVII asr o'rtalarida yuz bergan Burjua inqilobi davrida
C) XVIII asr II yarmidagi sanoat to'ntarishi davrida
D) XX asr boshlaridagi parlament islohoti davrida

46. Nechanchi yilda va kim boshchiligidagi xioniylar So'g'dga bostirib kirganlar?
A) 353-yil, Sumbat B) 355-yil, Malxut
C) 353-yil, Grumbat D) 351-yil, Xion

47. Qaysi javobda bir yilda sodir bo'lgan voqealar keltirilgan?
A) Ismoil Somoniyning Tarozni zabt etib dashtliklarga qaqshatqich zarba berishi va Bolgariyada Simeon hukmronligining boshlanishi
B) Kiyev Rusining tashkil topishi va Xorazmning Qutayba ibn Muslim tomonidan egallanishi
C) Temuchinning xon deb e'lon qilinishi va Otsiz hukmronligining boshlanishi
D) Muz jangi va Muhammad Xorazmshoh hukmronlik davrining boshlanishi

48. Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya qo'shma qirolligi qachon tashkil topgan?
A) 1911-yil B) 1925-yil C) 1892-yil D) 1921-yil

49. Kanada marokashliklar hukmronligiga qachon chek qo'yildi?
A) 1076-yilda B) 1097-yilda C) 1087-yilda
D) 1173-yilda

50. Ismoil G'aspirali tomonidan Boqchasaroyda va Buxoro amirligida birinchi jadid maktablari ochilgan yillarni toping.
A) 1888, 1894-yillar B) 1884, 1893-yillar
C) 1888, 1893-yillar D) 1884, 1894-yillar

51. SSSR o'z hududi Afg'oniston tashqi savdosida transit vazifasini o'tashi mumkinligini ma'lum qilgan yilni aniqlang.
A) 1964-yil B) 1979-yil C) 1955-yil D) 1973-yil

52. Nechanchi yilda 45 ming kishilik "Chexoslovak korpusi" Sovet davlatiga qarshi isyon ko'tardi?
A) 1919-yil B) 1918-yil C) 1920-yil D) 1921-yil

53. Asosiy maqsadi o'lkada ma'muriy boshqaruvni mustahkamlash va yerdan foydalanish tartiblarini o'zgartirishdan iborat bo'lgan "Turkiston o'lkasini idora qilish to'g'risidagi Nizom" qaysi rus imperatori tomonidan tasdiqlangan?
A) Aleksandr III B) Nikolay II C) Nikolay I
D) Aleksandr II

54. Tarixda odamiylik, sabr-matonat va jasurlik timsoli bo'lib qolgan shaxsni aniqlang.
A) Arastu B) Suqrot C) Aflotun D) Geraklit

55. Qadimgi dunyo tarixini eslang va Frakiya bilan bog'liq ma'lumotlar to'g'ri ko'rsatilgan javobni belgilang.
1) Frakiya Bolqon yarimorolining sharqiy qismida joylashgan; 2) Frakiyaning Ahamoniylar hukmdori Doro I tomonidan bosib olinishi yunon-fors urushlari boshlanib ketishiga sabab bo'ldi; 3) Mashhur yunon faylasufi Demokrit Frakiyada tug'ilgan; 4) Rimdagi qullar qo'zg'olonini yetakchisi Spartak Frakiyada tug'ilgan; 5) Kichik Osiyoda joylashgan yunon koloniyasi hisoblanadi; 6) Fors podshosi Doro III tomonidan bosib olingan; 7) Richag qonunini yaratgan Arximed Frakiyada tug'ilgan; 8) Rivojatlarga ko'ra yunon xudolari yashaydigan Olimp tog'i Frakiyada joylashgan.
A) 1, 4, 6, 8 B) 1, 2, 3, 4 C) 2, 3, 5, 7 D) 5, 6, 7, 8

56. Bolgariya rahbari T.Jivkov Sovet davlatidagi "qayta qurish"ni qanday qarshi oldi?
A) *shunchaki qo'llab-quvvatladi*
B) *norozilik bilan qarshi oldi*
C) *porloq kelajakni ta'minlaydigan dastur sifatida qarshi oldi*
D) *neytral munosabatda bo'ldi*
57. Bir vaqtda sodir bo'lgan voqealar qatori to'g'ri berilgan javobni aniqlang.
1. Yangi Bobil podshohligi tashkil topdi 2. Misrga Fors qo'shinlari bostirib kirdi. 3. Midiyada qabilalar ittifoqlari vujudga keldi. 4. Buddaviylik dini vujudga keldi. 5. Yunon koloniyalashtirish davri boshlandi. 6. Saklar harbiy qabila ittifoqini tuzadilar.
A) 2, 3, 5 B) 1, 4, 6 C) 1, 3, 5 D) 2, 4, 6
58. 1941-45-yillar oralig'ida O'zbekiston hududida qurilgan zavodlar to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping.
1) Xilkovo zement zavodi; 2) Quvasoy kimyo zavodi;
3) Quvasoy zement zavodi; 4) Qo'qon superfosfat zavodi;
5) Bekobod metallurgiya zavodi; 6) Farg'ona gidroliz zavodi
A) 2, 4, 5, 6 B) 1, 3, 4, 6 C) 1, 2, 3, 4 D) 3, 4, 5, 6
59. Qaysi ijodkorning qanday nomdagi asarida XIX asr oxiri - XX asr boshlarida AQShda hukm surayotgan irqchilikka qarshi kurash masalasi o'z ifodasini topgan?
A) *Jek Londonning "Temir tovon" asarida*
B) *Mark Tvenning "Munofiqlar oroli" asarida*
C) *Garriyet Bicher-Stounning "Tom tog'aning kulbasi" asarida*
D) *Teodor Drayzerning "Moliyachi" asarida*
60. Qaysi javobda quyidagi Sharqiy Yevropa davlatlari 2000-yildagi yalpi ichki mahsulotning aholi jon boshiga hisoblangan ko'rsatkichlari asosida to'g'ri ketma-ketlikda (miqdori ko'pidan oziga qarab) joylashtirilgan?
1) Xorvatiya; 2) Chexiya; 3) Yugoslaviya
A) 2, 3, 1 B) 3, 2, 1 C) 3, 1, 2 D) 2, 1, 3
61. Quyidagi ma'lumotlar orasidan to'g'rilarini toping.
1) 2003-yilda mamlakatimizning yarim milliondan ortiq aholisi axborot xizmatining muhim turi hisoblanayotgan Internetdan foydalangan bo'lsa, 2010-yilda ularning soni 6 milliondan oshdi.
2) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisida 1996-yil 26-dekabrda "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida" qonun qabul qilindi.
3) O'zbekistonda 1996-yilda ommaviy axborot vositalarini demokratiyalashtirish va qo'llab-quvvatlash bilan shug'ullanuvchi ijtimoiy-siyosiy jamg'arma tashkil etildi.
4) 2004 yil aprel oyida "uz" hududida ro'yxatga olingan WEB saytlar soni 2600 taga yetdi.
5) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisida 1998-yil 24-aprelda "Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida" qonun qabul qilindi
A) 2, 3, 4 B) 1, 3, 5 C) 2, 4, 5 D) 1, 3, 4
62. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi to'g'risidagi qonun qabul qilingan sanani aniqlang.
A) 1999-yil 27-dekabr B) 1993-yil 28-dekabr
C) 1994-yil 22-sentabr D) 2002-yil 4-aprel
63. 1944-yil yanvaridayoq ammiyak ishlab chiqarishni boshlagan Chirchiq elektrkimyo kombinatining ikkinchi navbati qaysi shaharlardan keltirilgan uskunalar asosida qurilgan?
A) *Guryev va Makeyevka* B) *Beloretsk va Dobryanka*
C) *Ximki va Belovejsk* D) *Gorkiy va Stalinogorsk*
64. Qaysi javobda quyidagi yozuvchilar ularning yozgan asarlari bilan to'g'ri ko'rsatilgan?
1) J.London; 2) E.Zolya; 3) R.Tagor; 4) G.Mann;
a) "Temir tovon"; b) "Rugon-Makkari"; c) "Halokat va tubanlik"; d) "Sodiq fuqaro"
A) 1 - a, 2 - b, 3 - c, 4 - d B) 1 - b, 2 - a, 3 - d, 4 - c
C) 1 - d, 2 - a, 3 - c, 4 - b D) 1 - d, 2 - b, 3 - c, 4 - a
65. 1895-yilda 10 yillik qurollanish dasturi qabul qilingan davlatni aniqlang.
A) *Germaniya* B) *Avstro-Vengriya* C) *Italiya*
D) *Yaponiya*
66. Qanday jarayon Xiva savdogarlariga Qobul bozorlarida erkin savdo qilish huquqini berdi?
A) *Afg'oniston va Buxoro o'rtasidagi savdo-sotiq munosabatlarida keskinlikning kuchayganligi*
B) *Xivadan Hindistonga chiqariladigan mollarning bir qismini Afg'oniston bozorlarida sotilishiga ruxsat berilishi*
C) *Muhammad Rahimxon I ning shoh Mahmudni taxtga o'tirishiga ko'rsatgan yordami*
D) *afg'on savdogarlariga Xiva orqali boj to'lovlarisiz Rossiyaga o'tishlariga ruxsat berilganligi*
67. Amir Temur markazlashgan davlat barpo etishdek ulkan maqsadini ro'yobga chiqarish ishini nimadan boshlagan edi?
A) *davlat chegaralarini qayta tiklashdan*
B) *o'z davlati uchun qulay poytaxt tanlashdan*
C) *ichki g'animlarga qarshi kurashdan*
D) *Oltin O'rdaga hujum qilishdan*
68. Qirol Xlodvig xristian dinini qabul qilgan paytdan boshlab...
